

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**



**FILOLOGIYA FAKULTETI
O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI
5111200 – o'zbek tili va adabiyoti bakalavr ta'lif yo'naliishi
4- „V“ kurs talabasi
XUDARGANOVA BARCHINOY FARHODOVNA
BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: «O'ZBEK TILI ILMIY USLUBIDA
UMUMISTE'MOLDAGI VA CHEGARALANGAN LEKSIK
QATLAMNING QO'LLANILISHI»**

Talaba:

B. Xudarganova

Ilmiy rahbar:

f.f.n., dots. E. Xo'janiyozov

Kafedra mudiri:

f.f.n., dots. Sh. Yuldosheva

O'zbek tili va O'zbek adabiyoti kafedralari qo'shma yig'ilishining 2019- yil 10- maydagi 4- bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.

NUKUS – 2019

Davlat attestatsiya komissiyasi

QARORI:

5111200 – o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi 4-«V» kurs talabasi Xudarganova Barchinoy Farhodovnaning «O‘zbek tili ilmiy uslubida umumiste’moldagi va chegaralangan leksik qatlamning qo‘llanilishi» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga «___» ball («___%») qo‘yilsin.

«___» _____ 2019- yil

DAK kotibi: O.Xaytbayev

MUNDARIJA

Kirish.....
I Bob. Ilmiy stilning leksik-semantik xususiyatlari.	
1.1. Ilmiy stil leksikkasining adabiy til leksikasi doirasida tutgan o‘rnin-----	
1.2. Ilmiy stilning leksik qatlami umumistetmol leksika-----	
1.3. Ilmiy stil leksikasining chegaralanganligi.-----	
II. Bob. Terminlarning leksik-semantik jarayonlari	
2.1. Terminlarning mohiyati va xususiyatlari-----	
2.2. Terminlarning so‘z turkumlarga munosabati.-----	
III. Bob. Nutq uslublarining o‘rta maktablarda o‘rganilishi.	
3.1. Nutq uslublarini o‘rta maktablarda o‘rganishning ahamiyati. -----	
3.2. Uslublarni o‘rganish bo‘yicha dars ishlanma.-----	
Xulosa-----	
Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yhati-----	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbek tilshunoshligida nutq uslublarini o‘tgan asrning 60-yillaridan boshlab qo‘lga olina boshlandi.

Shungacha bo‘lgan davrda tilshunoslik va uslubshunoshlik va nutq uslublari masalalari rus tilshunosligida ancha o‘rganilgan bo‘lib,bu sohada ancha boy tajriba to‘plandi.Bu sohada akamedik V.V. Vinogradov, A.N. Gvozdev, A.I.Yefinov, A.Adnone, G.V. Steponov, G.Ovinokur kabi olimlarning ishlari dunyo yuzini ko‘rdi.

Keyinchalik bu ishlar M.N.Kojina, B.N.Golovin, O.I.Steponov, A.N.Vaselova, O.D.Mitrofanova kabi olimlarning ishlarida davom ettirildi.

O‘zbek tilshunosligida XX asrning 60-yillaridan boshlab A.Shomaqsudov, R.Qo‘ng‘urov, T.Qurbanov, B.Yo‘ldoshov, I.Qo‘chqortoyev, Q.Suyunov kabi olimlar ishlarida bu masalaga tegishli masalalar o‘z ifodasini topdi.1980-yillarda ilmiy uslub alohida monografik planda o‘rganildi va “O‘zbek adabiy tilining ilmiy uslubi” nomli monografiyasi e’lon qilindi va shu asosda u o‘zining doktorlik dessertatsiyasini himoya qildi. Demak, shundan boshlab,ilmiy uslub alohida Sistema sifatida o‘rganila boshlandi va unga xos muamolar bo‘lingan tarzda ilmiy ishlar mavzulari boldi.

Malakaviy ishimizda ilmiy uslubda umumiste’moldagi leksik qatlam va chegaralangan leksik birliklarning ilmiy uslubda o‘rganilishi masalasi alohida tadqiqot obyekti boldi va u har tamonlama o‘rganilib, ilmiy bayon uslubining tarkibiy qismi sifatida olip qaraldi.Bu holat ilmiy uslubning o‘rta maktablarda, akademik litseylar, kasb hunar kollejlari, oliy o‘quv yurtlarida o‘rganilishiga ancha turtki berishi mumkinligi hisobga olinib, ular bo‘yicha maxsus tekshiruv olib boorish maqsadi ko‘zda tutildi. Bu esa ishning dolzarbligini taminlaydi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Mazkur muammo rus tilshunosligida yuqorida keltirganimizdek, G.Ovinokur, V.V.Vinogradov, R.A.Budogov,

L.V.Sherba, M.N.Kojena, A.I.Yefinov¹ kabilar tamonidan o‘rganilgan.O‘zbek tilshunosligida bu bo‘yicha A.Shomaqsudov, R.Qo‘ng’irov, T.Qurbanov, B.Yo‘ldoshov, I.Qo‘chqortoyev, S.Karimov, Q.Qurbanov kabilarni ishlarini keltirish mumkin. Keyinchalik bu bo‘yicha alohida doktorlik dessertatsiyasi himoya qilingan va M.Mukarramovning ilmiy monografiyasini dunyo yuzini ko‘rgan². Yuqoridagi ko‘rsatilgan ishlar bizning malakaviy ishimizga o‘ziga xos tayanch vazifasini o‘tadi va biz ulardagi ilmiy- nazariy qarashlardan, xulosalardan foydalandik.

Tadqiqotni maqsadi. Tadqiqotni maqsadi quyidagilardan iborat.

–O‘zbek adabiy tili ilmiy uslubining xarakterli xususiyatlarini ochib berishdan;

–Ilmiy uslubning o‘zbek adabiy tili vazifaviy uslublari tizimidagi o‘rnini aniqlashdan;

–Ilmiy uslubning leksik taribini o‘rganishdan;

–Ilmiy uslubda qo‘llanilgan umumiste’moldagi va chegaralangan leksik qatlamdagi so‘zlarning qo‘llanilishini ko‘rsatib berishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari. Yuqoridagi tadqiqot maqsadlaridan kelip chiqib quyidagi vazifalar belgilandi:

–Umumiste’moldagi leksikaning ilmiy uslubda qo‘llanilish darajasini aniqlash;

–Ilmiy uslubda qo‘llanilgan leksik birlik boshqa vazifaviy uslublarda qo‘llanila olish xarakterini belgilab berishdan;

–Har bir so‘z turkumiga tegishli umumiste’moldagi leksik birliklarning ilmiy uslubda qo‘llanilish darajasini ko‘rsatishdan;

–Ilmiy uslubda qo‘llanilgan iste’mol doirasi cheklangan leksik birliklarning ilmiy uslubda qo‘llanilish xususiyatlarini belgilashdan;

¹ Vinogradov V.V. Итоги апсуждения вопросов стилистики. ВЯ 1955, №1. С82;

² Mukarramov M. Hozrgi o‘zbek adabiy tilining ilmiy stili. Toshkent 1984.

– Ilmiy stilning eng asosiy ifodali birliklaridan terminlarning xususiyatlarini ularning oddiy so‘zlardan farqli jihatlarini ko‘rsatib berishdan;

– Terminlarda sinonimik, omonimik, dubletlik xususiyatlarini ochib berishdan va ularni tavsiflashdan va boshqalardan iborat.

Tadqiqotning obyekti. Keyingi yillarda o‘zbek tili leksikasining stilistika bilan bog‘liq aspektlarini o‘rganish bo‘yicha ham ba’zi ishlar amalga oshirildi.

Stil (uslub) so‘zi hozirda keng va tor ma’nolarda ishlatilmoqda. Keng ma’noda «uslub», «usul», «yo‘l» so‘zlarining ma’nosdan ish uslubi, o‘yin uslubi, qadimgi muhtasham binolar uslubi kabi ishlatilsa, tor ma’noda tilshunoslik, adabiyotshunoslik va san’atshunoslik fanlarining bir sohasi sifatida — terminologik ma’noda qo‘llanayotir. Stolistika termini o‘tgan asrning o‘rtalaridan beri filologiya fanida ishlatilib kelinayotgan b o‘lsa-da, lekin hozirgacha uning bir qancha masallarida bir xil qarash yo‘q.

Tilshunoslik stilistikasida haligacha obyekt, til va nutq stillari, funktsional stillar va ularning klassifikasiyası, funktsional stillarning umumxalq hamda adabiy tilga, uning normasiga munosabati, badiiy stilning funktsional stillarga, shuningdek, adabiy tilga munosabati, badiiy stilning tilshunoslik va adabiyotshunoslik aspektlari kabi bir qancha masalalari ilmiy-nazariy adabiyotlarda turlicha talqin qilinmoqda.

Ilmiy-nazariy adabiyotlarda stilistika obyektiga asosan uchta problema kiritiladi: 1) tilning tasviriy ifoda imkoniyatlari; 2) funktsional stillar; 3) badiiy adabiyot stili. Ba’zi ishlarda leksik va grammatik sinonimiya ham stilistika obyekti sanaladi.

Tadqiqotning obyekti o‘zbek adabiy tilining ilmiy uslubi hisoblanadi. Bunda ilmiy uslub yaxlitligicha olingan va matematik, fizik, tilshunoslik, botanika, zoologiya kabi fanlar matnlari obyekt qilib olingan.

Tadqiqotning predmeti. Tadqiqotning predmentini ilmiy uslub matnlaridan to‘plangan umumiste’ moldagi leksik birliklarini chegaralangan leksik qatlamdagи so‘zlarni tavsiflashdan va tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari. Tadqiqotning metodologik asoslari sifatida O‘zbekiston Respublikasi milliy mustaqilligi g’oyasi va mafkurasida ko‘rsatilgan holatlar va fanning milliy mustaqillik yo‘nalishi bo‘yicha vazifalaridan kelib chiqadigan huquqiy-meyoriy hujjatlar tashkil qiladi. Shuningdek, ishda lisoniy tahlil mavjud materiallarni tavsiflash, qiyoslash, sharhlash kabi usullar qo‘llanilgan.

Ishning ilmiy yangiligi. Ishning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat.

– ilmiy stilning barcha matnlaridan olingan umumiste’moldagi leksik birliklar malakaviy ishda maxsus so‘z turkumlari bo‘yicha tahlil qilindi va izohlandi.

– bu leksik birliklarning boshqa vazifaviy uslublarda qo‘llanilishi ko‘rsatib berildi.

– ilmiy uslubda qo‘llanilish doirasi chegaralangan leksik birliklarning ishlatish darajasi aniqlandi.

– chegralangan leksikaning ayrim turlarining ilmiy uslubda qo‘llanilish va qo‘llanmaslik darajasi izohlab berildi.

– ilmiy uslubda umumfanga oid terminlar va maxsus fanlarnin o‘zaro mutanosibligi qiyosan ko‘rsatib berildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ilmiy ahamiyati shundaki, malakaviy ishda ilmiy uslub leksikasi tarkibiga ko‘ra aniqlandi va ularning ilmiy uslubda qo‘llanilish darajasi extralingvestik omillarga bog’liq holda izohlab berildi va xulosalar chiqarildi.

Malakaviy ishning amaliy ahamiyati shundaki, unda berilgan faktiv va materiallar va ulmiy-nazariy xulosalar umumta’lim maktablarning o‘quvchilariga, o‘rta maxsus kasb hunar ta’limi va oliy yurtlari talabalariga vazifaviy uslublarini to‘g’ri tushunishga va ularning ilmiy uslub xususiyatlarini aniq tasavvur qilishga yordam beradi.

Ishning tuzulishi va hajmi. Malakaviy ish kirish, uch bob,yeti fasl,xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, uning umumiylajmi____ iborat.

I BOB. ILMIY STILNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

1.1. Ilmiy stil leksikasining adabiy til leksikasi doirasida tutgan o'rni

Har bir fuknktional stilning o'z stil sathlariga ega bo'lishi unda qo'llangan til birliklarining guruhlanishida ham ko'rindi, ya'ni til birliklari funktsional stilning stil sathlari belgilariga mos q o'llanishga majbur bo'ladi. Til birliklarining funktsional stillarga xoslanish belgisi fonetik, leksik va grammatik jihatdan bo'lib, ularni o'rganish stilistikaning asosiy masalalari sanaladi.

Kitobiy nutqning proza janriga asoslangan ilmiy, publitsistik va rasmiy-hujjat stillari fonetik jihatdan bir-biridan ajralib turuvchi yorqin belgiga ega emas. Shuning uchun bu stillarga bag'ishlangan ishlarda uning fonetik belgilariga ahamiyat berilmay, leksik va grammatik belgilari o'rganiladi. Chunki bu stillar leksik va grammatik belgilari bilan konkret ajralib turadi. Har bir funktsional stil o'zining barcha til yaruslari bilan bir-biridan keskin farq qilmaydi. Farqlanish bir yarusda ortiqroq, ikkinchisida esa kamroq bo'lishi mumkin.

Ilmiy stil leksikasiga bag'ishlangan nazariy adabiyotlarning deyarli barchasida leksika haqida fikr yuritilganda, uning kitobiy yozma leksikaga xosligi, til normasi doirasida qo'llanishi, tilning tasviriy ifoda vositalari: o'xshatish, sifatlash, metafora, litota v.b. obrazli vosita sifatida qo'llanmasligi, terminlar ishlatalishining shu stilga xosligi asosiy belgi sifatida ko'rsatiladi.

Ilmiy stil leksikasida ko'zga yaqqol tashlanib turadigan birliklardan biri terminlardir. Chunki terminlarning voqe bo'lishi, yashash sharoiti ilmiy adabiyotlardir. Shuning uchun leksika haqidafikr yuritgan olimlar birinchi o'rinda terminologik leksikani tilga oladilar. Boshqa leksik birliklar haqida kam gapiriladi yoki faqat nomi aytib o'tiladi, xolos. Masalan, R.A.Budagov ilmiy stilning belgilari haqida fikr yuritganda «leksikada terminlardan tashqari ko'p ma'nolikdan mahrum bo'limgan umumxalq so'zlari ham keng qo'llana oladi», - deb yozadi. O.S.Axmanova va M.M.Glushko tahriri ostida chiqqan asarda ilmiy uslub leksikasi uch qatlamga ajratiladi: 1) umumiste'mol leksika; 2) umumilmiy leksika; 3) konkret ilmiy yoki terminologik leksika.

O.D.Mitrofanova ilmiy stil leksik birliklarini ikki katta qatlamga ajratadi. Birinchisi, umumiy leksik qatlam bo‘lib, ma’no jihatdan umumxalq leksikasi bilan zich aloqada va shu tilda gaplashuvchilarinng hammasiga tanishdir, deb yozadi u. Ikkinchisi, maxsus leksika terminlaridir. O.D.Mitrofanova ham boshqa avtorlar kabi umumiy leksik qatlamni maxsus tekshirmaydi. M.P.Senkevich leksik qatlamni uchga bo‘ladi: 1) umumiste’mol leksika; 2) umumilmiy leksika; 3) terminologik leksika. Ukrain tilshunosi A.P.Koval ilmiy matnning leksik qatlamlarini to‘rtga bo‘ladi: 1) umumiste’mol so‘zlar; 2) terminlar; 3) nominativ birliklar; 4) simvollar. Bu ishlarda ham asosiy diqqat-e’tibor terminologik leksikaga qaratilgan. Boshqa leksik birliklar alohida o‘rganilmaydi.

Biz shu olimlarning nazariy fikrlariga asoslanib va o‘zbek tili faktlaridan kelib chiqib ilmiy stil leksikasini funksional-stilistik nuqtai nazaridan shartli ravishda to‘rt qatlamga bo‘ldik:

1. Umumiste’mol leksika.
2. Umumilmiy leksika.
3. Terminologik leksika.
4. Simvolik belgilar.

Bulardan tashqari, ilmiy stilga xos shartli qisqartmalar ham borki, bularni biz simvolik belgilar doirasiga kiritdik. Ishda bu leksik qatlamlarning ilmiy bayonda o‘ziga xos qo‘llanishiga, ilmiy nutqni badiiy nutqqa solishtirish orqali leksik qatlamlarning qo‘llanish chastotalaridagi farqlarga asosiy diqqat-e’tiborni qaratdik.

Ilmiy stil leksikasini bir butun yaxlit sanalgan adabiy til leksikasiga takqoslaydigan bo‘lsak, uning stil belgilari aniq ko‘rinmaydi. Chunki ilmiy stil ham adabiy tilning bir ko‘rinishi bo‘lib, unga mos q o‘llangan so‘zlar adabiy tilga oid bo‘ladi. SHu jihatdan terminlar ham adabiy til birligi sanaladi.

Ilmiy stilda tasviriy vositalar obrazlilik uchun xizmat qilmas ekan, unda badiiy stildek individuallik ham bo‘rtib turmaydi. So‘z to‘g‘ri, nominativ ma’nosi bilan ishlatiladi. Okkozional ma’noli so‘z qo‘llash ko‘zga tashlanmaydi.

Bularning hammasi ilmiy stil leksikasini adabiy til leksikasiga taqqoslash orqali uning stil belgilarini aniqlab bo‘lmasligini ko‘rsatadi.

Bu jihatdan badiiy stil leksikasi boshqacha ko‘rinishga egadir.U adabiy til leksikasiga taqqoslanganda, arxaizm, istorizm, dialektizm, argo, jargon, vulgar so‘zlarning ishlatalishi bilan, shuningdek, so‘zni okkazional ma’noda qo‘llash bilan farq qilishi ko‘zga tashlanadi.

Bulardan ma’lum bo‘ladiki, ilmiy stil leksikasining o‘ziga xos belgilarini adabiy til leksikasining belgilaridan izlashga to‘g‘ri keladi. O‘rni bilan ilmiy stil leksikasini badiiy stil leksikasiga taqqoslash ham har bir funksional stilning o‘ziga xos belgilarini yanada konkretlashtirishga, farqli belgilarini ochishga yordam beradi. Shuning uchun ilmiy stil leksikasining o‘z leksik qatlamin o‘rganishdan avval adabiy til leksikasining funksional-stilistik va funksional-ekspressivlik jihatdan qatlamlarga bo‘linishini ko‘rib chiqishga to‘g‘ri keladi.

Ilmiy stil adabiy tilning bir ko‘rinishi bo‘lib, uning leksikasi umumiste’mol, umumilmiy, terminologik qatlamlarga ajralar ekan, unga asosiy zamin bo‘lgan adabiy tilning leksikasi stilistik jihatdan qanday qatlamlardan tarkib topgan degan savolga javob berishga to‘g‘ri keladi.

Bu msalalar murakkab va hal etilmagan, munozarali, turlicha qarashlardan iborat bo‘lsa-da, lekin biz uning umumiyl va asosiy belgi-xususiyatlari haqida qisqacha to‘xtalib o‘tishni lozim topdik.

Adabiy til leksikasi funksional-stilistki nuqtai nazardan shartli ravishda umumiste’mol, so‘zlashuv va kitobiy leksikalarga ajraladi.

Umumiste’mol leksika kitobiy nutqning barcha funksional stillarida, shuningdek, so‘zlashuv nutqida ishlataladigan, qo‘llanish doirasi chegaralanmagan leksik birliklardir. Bunday so‘zlar lug‘at sostavining asosiy katta qismini tashkil qiladi. Umumiste’mol leksika kishining yoshidan, jinsidan, kasb va mutaxasisligidan, bilim saviyasidan qat’iy nazar, hamma uchun tushunarli bo‘lgan va asosan, ularning kundalik muomala nutqida ishlataladigan so‘zlardir. Bularga misol sifatida *oy, er, yaxshi, yomon, men, sen, u, bir, ikki, bormoq, olmoq, sekin, tez, kabi, singari, va, hamda, demak, ham, agar, nihoyat*

kabi mustaqil va yordamchi so‘z turkmuga kiruvchi birliklarni ko‘rsatish mumkin. Mustaqil so‘z turkmuga kiruvchi umumiste’mol leksikasida umumiste’mollik xususiyati nisbiydir. Ular kitobiy nutqlarda umumiste’mollik xususiyatini yo‘qotish mumkin. Masalan, *oy*, *er*, *suv*, *havo* so‘zlari imliy nutqda terminologik ma’no kasb etishi bilan umumiste’mollik xususiyatini yo‘qotadi. Publitsistik nutqlarda umumiste’mol so‘zlar *tinchlik kuchlari*, *taraqqiyot yo‘llari*, *ilg‘orlarga tenglashish*, *ish tashlash* kabi birikma tarzida qo‘llanishi bilan publitsistik bo‘yoqqa ega bo‘ladi, ya’ni umumist’emollik belgisini yo‘qotadi.

Yordamchi so‘zlar haqiqiy umumiste’mollik xususiyatini saqlaydi. Ularda grammatik tomon ustun bo‘lgani uchun kitobiy nutqning har qanday turida o‘zining bu xususiyatini saqlay oladi.

Ko‘rinadiki, mustaqil so‘z turkumiga oid umumiste’mol leksika (ayniska, ot turkumidagi so‘zlar) kitobiy nutqlarda barqaror emas. U o‘zining haqiqiy umumiste’mollik xususiyatini so‘zlashuv va badiiy nutqlarda saqlashi mumkin. Ammo ilmiy, publitsistik va rasmiy-hujjat nutqlarda esa doimiylik belgisini saqlamasligi, kitobiy nutq tendensiyasiga o‘tishning kuchliligi ko‘rinadi. Kitobiy nutqlarda birortasiga xoslanish (ilmiy, puyulitsistik, rasmiy-hujjatga ega bo‘lgan bo‘yoq) sezilmagan so‘zlarni umumiste’mol leksika doirasiga kiritish to‘g‘ridir.

So‘zlashuv leksikasi odatda og‘zaki nutqqa moslangan bo‘lib, kitobiy leksika bilan oppozitsiyada turadi. So‘zlashuv leksikasi tematik jihatdan asosan kundalik muomala nutqida ishlataladi. Ular konkret ma’nosи, adabiy va normativ sanalmasligi kabi belgilari bilan kitobiy leksikadan ajralib turadi. Ularga *picha*, *yumush*, *jindak*, *ajabtovur*, *avvalambor*, *lekegin (lekin)*, *ammolekin*, *burun (avval)* kabi so‘zlar kiradi.

O‘zbek tili so‘zlashuv stiliga xoslangan so‘zlar aynilsa, fonetik, morfologik belgilari bilan umumiste’mol va kitobiy leksikadan yaqqol ajralib turadi. Masalan, *kegin (keyin)*, *ja (juda)*, *opke (olib kel)*, *boruvdi (borib edi)*, *baqa (bu yoqqa)*, *shaqa (shu yoqqa)*, *bilvo (bilib ol)* kabilarni ko‘rsatish mumkin.

So‘zlashuv leksikasi kitobiy nutqlar doirasida ham qo‘llanadi.U faqat badiiy nutq, shuningdek publitsistik nutqning badiiy ocherk, feleton janrlarida personaj

nutqlaridagina ishlatilishi mumkin. Kitobiy nutqning rasmiy hujjat, ilmiy, publitsistik stillari so‘zlashuv leksikasini qabul qilmaydi. Ular adabiy norma sanalmaganligi uchun normativ lug‘atlarda berilmay, qavs ichida «so‘zlashuvga, dialektga xos» degan izoh bilan beriladi.

Kitobiy leksika faqat yozma adabiy til traditsiyasiga bog‘liq bo‘lgan shu nutq turiga xoslangan birliklarni o‘z ichiga oladi. Kitobiy leksikani so‘zlashuv leksikasiga taqqoslaganda, uning kitobiylilik belgilari konkretlashadi.

Kitobiy nutq voqe bo‘lish xususiyatiga ko‘ra, ilmiy, rasmiy-hujjat, publitsistik nutqlarga ajralar ekan, demak, bu nutq turlariga xoslangan spetsifik leksik birliklar ham mavjuddir.

Kitobiy leksikani funktsional-stilistik jihatdan shartli ravishda ijtimoiy-siyosiy, umumilmiy, rasmiy, hujjat, ilmiy terminologik leksik qatlamlarga bo‘lish mumkin.

Ijtimoiy-siyosiy leksika asosan publitsistik nutqqa xoslangan so‘zlardir. Bunday so‘zlar siyosatga, iqtisodga oid bo‘lgan ma’lum tushunchalarni anglatadi. Ular, asosan, gazeta va jurnal sahifalarida ishlatiladi. Ijtimoiy-siyosiy leksikaga quyidagi so‘zlarni ko‘rsatish mumkin: *tinchlik, erkinlik, ozodlik, mustaqillik, harbiy sanoat, taraqqiyot v.b.*

Rasmiy leksika rasmiy nutqqa xoslangan leksik birliklardir. Rasmiy nutq bu hujjat stili bo‘lib, unga xalqaro shartnomalar, yuridik qonunlar, davlat qarorlari, kiradi. Shu nutq turiga xoslangan leksik birliklarga *shartnoma, rasmiy, uchrashuv, qabul marosimi, bayonnomma, tashkilot, ishonch yorlig‘i, qaror, sud, modda, prokuror, oqlovchi* kabi so‘z va birikmalarini kiritish mumkin.

Rasmiy nutqda bulardan tashqari, ijtimoiy-siyosiy, umumilmiy, ilmiy-terminologik leksik birliklar, umumiste’mol so‘zlar qo‘llanishi tabiiydir.

Umumiy leksika ilmiy nutq leksik qatlamining bir ko‘rinishi bo‘lib, ilmiy-terminologik leksikadan bir fan termini doirasi bilan chegaralanib qolmasligi, barcha fanlarda teng xizmat qilishi, faqat ilmiy tushuncha anglatishi bilan ajralib turadigan leksik birliklardir. Ularga *nazariya, fan, ilmiy adabiyot, kashfiyat, olim,*

tadqiqotchi, ilmiy izlanish, sistema, struktura, qonuniyat, kategoriya, bob kabi so‘zlar misol bo‘la oladi.

Terminologik leksika ilmiy nutqqa xoslangan, uning konkret bir fan doirasi bilan chegaralangan leksik birliklaridir. Har bir fanning o‘z terminlari bo‘lib, ular shu vositalar orqali ish ko‘radi. Terminlar fan sohasiga oidligiga ko‘ra tilshunoslik, adabiyotshunoslik, botanika, zoologiya, meditsina, matematika, fizika kabi fan terminlariga bo‘linadi.

Umumiy leksika bilan terminologik leksika maxsus teshirish obyekti bo‘lgani uchun bular haqida alohida to‘xtalamiz.

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, funktsional-stilistik nuqtai nazaridan bir butun, yaxlit sanalgan adabiy til leksikasi shartli ravishda so‘zlashuv, umumiste’mol, ijtimoiy-siyosiy, rasmiy, hujjat, umumilmiy, terminologik leksik qatlamlarga ajraladi. Ular o‘zlarining ma’lum ma’no belgi-xususiyatiga ko‘ra bir-biridan ajralib turadi. Leksika tilning eng harakatchan, dinamik birliklaridan bir bo‘lganligi uchun nutqning konkret ko‘rinishlarida (funktsional stillarda) ishlatilganida shu nutq turiga xoslanishi ma’lum bo‘ladi. Bu xususiyat, ayniksa, umumiste’mol leksikada yaqqol gavdalaniib, deyarli barcha funktsional stillar talabiga bo‘ysunadi.

Funktsional-ekspressivlik nuqtayi nazaridan adabiy til leksikasi shartli ravishda neytral va ekspressiv-emotsionalli leksikaga ajraladi.

Ekspressiv-emotsionalli leksika nutq turiga ko‘ra so‘zlashuv va kitobiy leksikalarga bo‘linadi.

Neytral leksika deganda yozma va og‘zaki nutqqa xoslangan so‘zlarning ekspressiv-emotsionallik jihatdan hech qanday belgiga ega emasligi tushuniladi. Neytral leksikaning og‘zaki va yozma leksik birliklardan iborat bo‘lishi uni umumiste’mol leksikasiga yaqinlashtiradi, lekin aynan teng emas.

Neytarllikning bo‘linish printsipi funktsional-ekspressivlik, umumiste’mollikning bo‘linish printsipi esa funktsional-stilistik, ya’ni qo‘llanishning chegaralanmasligidir.

Neytral leksika umumiste'mol va kitobiy leksikalardan tarkib topadi. Masalan, *suv*, *havo*, *ayiq*, *qo'y* so'zlari yozma va og'zaki nutqda bosh, nominativ ma'noda qo'llanishi bilan umumiste'mol va neytral leksika bo'la oladi. Ilmiy nutq terminologik ma'no kasb etganda kitobiy leksika sanalib, umumiste'mollik xususiyatini yo'qotadi. Ekspressiyaning yo'qligi uni neyral leksikaga tenglashtiradi. Ammo so'zlashuv nutqida *ayiq*, *qo'y* so'zlari odamga nisbatan ishlatilganda neytrallik xususiyatini yo'qotib, so'zlashuv nutqiga xos ekspressiv bo'yoqqa ega bo'ladi.

Kitobiy leksika doirasida ham ekspressiv-emotsionalligi neytral bo'lgan birliklar ko'pdır. Masalan, rasmiy nutqqa xos: *diplomat*, *elchi*, *vakolat*, *komitet* kabi so'zlar: hujjat nutqiga xos: *ariza*, *buyruq*, *kuchirma*, *tushuntirish xati*, *ma'lumotnoma* kabi so'zlar: shuningdek, deyarli barcha umumilmiy va terminologik leksika neytral leksika doirasiga kiradi. Neytral leksikada so'zning anglatgan ma'nosи va mantiqiylik birinchi rejaga chikariladi. Qo'shimcha ma'noning ottenka anglatishi nazarda tutilmaydi.

So'zlashuv stilining ekspressiv-emotsionalligi ma'no jihatdan ijobiy va salbiy ottenkali bo'ladi. Ijobiy ma'no: suyish, erkalash, hurmatlash ottenkasasi bo'linadi. Ularga: *aylanay*, *girgitton*, *qoqindiq*, *dumbog'im*, *bolakay*, *qo'zichog'im*, *oppog'im* so'zlarini keltirish mumkin.

Salbiy ma'no: *piching*, *kinoya*, *qochiriq*, *do'q*, *po'pisa*, *hurmatsizlik*, *so'kish*, *xaqorat*, *qo'pol*, *uyat ottenkalariga ega bo'ladi*. Masalan: *qitmır*, *bo'shang*, *lattachaynar*, *pismiq*, *ishshaymoq*, *xudbin*, *ahmoq*, *ablax*, *maraz*, *it*, *eshak* v.b.

Salbiy ma'noli ottenka so'zlashuv nutqida kitobiy nutqlarga qaraganda kuchliroq namoyon b o'ladi. Kitobiy nutqlarda esa bu hodisa chegaralanadi. Lekin bundan umuman salbiy ottenkali so'z qo'llanmaydi, degan ma'no kelib chiqmasligi kerak.

Demak, so'zlashuv nutqining ekspressiv-emotsionalligini shu kabi ma'no turlariga bo'lib o'rghanish mumkin.

Kitobiy leksika ekspressiv-emotsionallik belgisiga ko'ra shartli ravishda nutqiy xoslanish va ma'no jihatdan qatlamlarga ajraladi. Nutqiy xoslanish jihatdan

lug‘at tarkibini badiiy, ijtimoiy-siyosiy, rasmiy va ilmiy leksikalarga bo‘lish mumkin.

Ijobiy ma’noli ekspressiv-emotsionallikning manbai badiiy leksikadir. Unda qo‘llangan tantanali va poetik leksika faqat badiiy nutqning o‘zi uchungina xos bo‘lib qolmay, balki boshqa funktional stillar doirasida hamda kitobiy og‘zaki nutqning xilma-xil ko‘rinishlari: kecha, yubiley, to‘y, chaqiriq, majlis, miting va boshqa nutqlar doirasida ham keng ishlatiladi.

Badiiy leksika shu nutqlar doirasida qo‘llanganda nutqqa qo‘yilgan talabga bo‘ysunadi, ya’ni xoslanish belgisiga ega bo‘ladi.

Badiiy nutqda ishlatilgan tantanali va poetik leksika doimo o‘zining ijobiy ma’no ottenkasini saqlaydi. Tantanali leksikaga *ko‘rkam*, *o‘ktam*, *xushsurat*, *sohibjamol*, *otashqalb*, *totli*, *shon-sharaf*, *qalb qo‘ri* kabi so‘zlar misol bo‘la oladi. Ularga arxaizm hodisasi ham kiradi. Arxaik so‘zlarda stilistik bo‘yoq, tantanavorlik aks etib turadi, boqiy umr, ehtirom ila, tashrif buyurmoq, lutf aylamoq v.b.

O‘zbek tili lug‘at tarkibida arxaiklashgan poetik so‘zlar ham anchagina qismni tashkil qiladi. Ularga *shohsuvor*, *zulf*, *vasl*, *sarv*, *dudoq*, *yonoq*, *xiromon*, *malak*, *parivash* kabi so‘zlar kiradi.

Badiiy nutq doirasida yana shunday leksik birliklar borki, ular achinish, xafa bo‘lish kabi ma’no ottenkalariga ega: *miskin*, *garib*, *xazin*, *mushtipar*, *alvido*, *vidolashmoq*, *nido* v.b. Bu so‘zlerda so‘zlashuvga qaraganda kitobiylidka xoslik belgisi kuchliroqdir.

Ko‘rinadiki, badiiy leksikada salbiy ma’noli ekspressiv-emotsionallik ma’lum darajada chegaralanadi. Ijtimoiy-siyosiy leksika asosan rasmiy va publitsistik, qisman ilmiy nutqlarda ishlatiladi.

Ijtimoiy-siyosiy leksika ma’no jihatdan ijobiy va salbiy ottenkali bo‘ladi. Ijobiy ma’noli ijtimoiy-siyosiy leksikaga *jonajon*, *tinchlik uchun tolmas kurashchi*, *oldingi safda* kabi birikmalar kirib, ular kontekstda tantanavorlik ottenkasiga ega bo‘ladi. Salbiy ottenkali ijtimoiy-siyosiy leksikaga *gegemonizm*, *militarizm*, *aggressor*, *sovuk urush*, *urush olovini yoquvchilar*, *bosqinchilik siyosati*, *tazyiq*

o'tkazmoq, keskin qoralamoq kabi so'z va birikmalar oid bo'lib, ular anglatgan ma'no xususiyatiga ko'ra salbiy bo'yoqqa egadir.

Rasmiy nutq uchun xoslangan ijobiy ma'noli leksik birliklar ham bor. Ularga janob oliylari, oliy xazrat kabi arxaik so'zlar: *do'stona atmosfera, oliy darajadagi uchrashuv* kabi birikmalar misol bo'ladi.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, funktsional-ekspressiv aspekt bo'yicha leksika, birinchidan, neyral va ekspressiv-emotsionalli leksikalarga ajraladi. Ikkinchidan, har bir funktsional stilning o'z spetsifik ekspressiv-emotsionalli leksik birliklari mavjuddir. Uchinchidan, ularning ijobiy yoki salbiy ma'noli ekspressiyaning qabul qilishi turlichadir. Bu bevosita har bir nutq turiga qo'yilgan talab (ekstraliningvistik faktorlar)ga bog'liqdir. To'rtinchidan, kitobiy leksika ichida badiiy leksikaning qo'llanish doirasi erkinroq bo'lib, u boshqa nutq turiga o'tganda shu stilga xos bo'lган bo'yoqqa ega bo'ladi.

1.2. Ilmiy stilning leksik qatlami umumiste'mol leksika

Umumiste'mol leksika yuqorida ta'kidlaganidek, so'zlashuv nutqida hamda yozma nutq turlarida ishlatiladigan, nutqiylar qo'llanish jixatidan biror nutq turiga xoslanmagan leksik birlikdir. Bunday so'zlar lug'at tarkibining asosiy katta qismini tashkil qiladi.

Umumiste'mol leksika til lug'at tarkibining asosiy qismini o'zida aks ettiruvchi leksik qatlama sanalar ekan, bu o'rinda uning ilmiy proza nutqida qo'llanish rolini aniqlash muhimdir. Shuning uchun biz ilmiy nutqda qo'llangan umumiste'mol leksikaning o'ziga xos belgilari haqida to'xtalmoqchimiz.

Ma'lumki, har bir nutq turiga qo'yilgan talab va norma mavjud. Shu jumladan, ilmiy stilning ham o'z talab va normalari bor. Shunday ekan, unda qo'llangan har qanday leksik birlik ilmiy stil talabiga bo'ysunishga majburdir.

Ilmiy proza nutqining eng harakterli belgilaridan biri umumiste'mol sanalgan leksik birliklarning ilmiy stilda umumiste'molik harakterini yo'qotib kitobiy leksikaga xoslanishidir. Bu ayniksa, mustaqil so'z turkumlariga oid

so‘zlarda ko‘rinadi. Masalan, *oy*, *er*, *quyosh*, *ko ‘z*, *suv*, *tuz*, *havo*, *oq*. *Egri*, *to ‘g‘ri*, *qora*; *ikki*, *olti*; *o ‘tkir*, *o ‘tmas* kabi umumilga xos umumiste’mol so‘zlar ilmiy stilda o‘zining umumiste’mollik xususiyatini doimo saqlayvermasligi mumkin. Bu bevosita nutqqa qo‘yilgan talabdan, so‘zlarning funktsionallik harakteriga bo‘ysunishidan, so‘zni qanday ma’noda ishlatalishidan kelib chikadi. Masalan, *oy*, *er*, *quyosh*, *yulduz* so‘zlari astronomiya; *ko ‘z*, *burun*, *qulog*, *o ‘pka* so‘zlari meditsina; *suv*, *tuz*, *havo* so‘zlari ximiya fanlariga oid matnlarda terminologik ma’no kasb etishi bilan o‘zining umumiste’mollik xususiyatini yo‘qotib, kitobiy leksikaga xoslanadi.

So‘zlashuv va badiiy nutqlarda qo‘llangan umumiste’mol leksikaning qo‘llanish doirasi keng va erkin bo‘lib, u turli aniqlovchilarni olib kelishi mumkin. Masalan, *ko ‘z* so‘zi *qora* *ko ‘z*, *charos* *ko ‘z*, *ko ‘k* *ko ‘z*, *chag‘ir* *ko ‘z* v.b; *suv* so‘zi toza *suv*, iflos *suv*, buloq *suvi*, ariq *suvi*, gazli *suv* v.b. Ilmiy stilda esa *ko ‘z* va *suv* leksik birliklari terminologik ma’no kasb etganligi sababli har qanday erkin qo‘llanuvchi aniqlovchilarni qabul qilavermaydi.

Son turkumiga oid so‘zlar ham so‘zlashuv va badiiy nutqlarda qo‘llanganda konkret narsalarning miqdorini aniq ko‘rsatadi. Masalan: *ikkita bola*, *ikkita qalam*, *5 ta uy* v.b. Ammo matematik ilmiy bayon matnida abstrakt miqdor ma’nosini anglatadi.

Ochiq, *yopiq*, *to ‘g‘ri* sifat so‘z turkumiga kiruvchi so‘zlar so‘zlashshuv va badiiy nutqda o‘zining umumiste’mollik xususiyatini saqlasa, ilmiy nutqda *ochiq bo ‘g‘in*, *yopiq bo ‘g‘in*, *to ‘g‘ri burchak* tarzida qo‘llanishi bilan umumiste’mollik xususiyatini yo‘qotadi.

Bulardan ma’lum bo‘ladiki, ilmiy nutqda qo‘llangan umumiste’mol leksika, birinchidan, o‘zining leksik-semantik xususiyatini o‘zgartirishi bilan kitobiy leksikaga xoslansa, ikkinchidan, so‘z yasalishi orqali kitobiy leksikaga o‘tadi. Masalan: *keng+lik-kenglik*, *tekis+lik-tekislik*, *odam+simon-odam-simon*, *tashkil+iy-tashkilliy*, *oila+viy-oilaviy*; *oltingugurt*, *o ‘tmas+burchak-* *o ‘tmas burchak* v.b. Bu so‘zlarning o‘zak holatda qo‘llanishi umumiste’mollik

harakterini ko'rsatsa, yasalishlardan keyingi qo'llanishi esa kitobiy (terminologik) leksikaga xoslikni ko'rsatadi.

Miqdor jihatdan ilmiy nutq leksikasini so'zlashuv va badiiy nutqlar leksikasiga qiyoslasak, umumiste'mol leksika ilmiy bayonda bu ikki nutqqa qaraganda kamroq qo'llanishi ko'zga tashlanadi. Buni ilmiy proza tilida umumilmiy va terminologik leksikalarning ko'proq o'rin egallishi bilan izohlash mumkin. Umumiste'mol leksika aossan ana shu leksik birliklarning realizatsiyasi uchun xizmat qilishi, gap tuzish va gaplarni bog'lashdagi xizmati ortiqroq ekanligi ma'lum bo'ladi.

Badiiy nutqda narsa hodisalarining bayoni asosan umumiste'mol leksikaga oid bo'lgan so'zlar orqali yoritilsa, ilmiy nutqda esa terminologik va umumilmiy leksikalar orqali bayon etiladi. Shu sababli ilmiy stilda badiiy stilga qaraganda umumiste'mol leksika miqdor jihatdan ancha kamdir.

Endi real ilmiy matnlarni analiz qilish orqali umumiste'mol leksikaning qo'llanish xususiyatini ko'rib chiqaylik:

Qattiq jismda hosil bo'ladigan kuchlanish va deformatsiyalarni tekshirish masalalari bilan materiallar qarshiligiga emas, balki absolyut qattiq bo'lmagan jismlar mexanikasi ham shug'ullanadi.

Bu gapda ishlatilgan hosil bo'ladigan va tekshirish, bilan, emas, balki, ham, shug'ullanadi. So'zları o'zining umumiste'mollik xususiyatini to'liq saqlangan bo'lsa, birikmali terminlar (qattiq, jims, absolyut qattiq bo'lmagan jismlar) tarkibida qo'llangan so'zları o'zining umumiste'mollik harakterini yo'qotib, terminologik leksikaga o'tgan. Chunki umumiste'mol leksika termining shakllanishiga, yangi tushuncha ma'nosini anglatishga xizmat qilgan.

Matnda umumiste'mollik xususiyatini to'liq saqlagan so'zlar *qattiq, jism, kuchlanish, deformatsiya, materiallar qarshiligi, absolyut qattiq bo'lmagan jismlar mexanikasi, deformatsiyalanadigan jismlar mexanikasi* terminlari anglatgan tushunchalarning gap holida ifodalanishi uchun xizmat qilgan.

Matnda qo'llangan materiallar, absolyut, jism, mexanika so'zları umumilmiy leksikaga oidligi ko'rindi. Qarshilik, qattiq, bo'lmagan so'zları esa umumiste'mol

leksika sanaladi. Lekin ularning birikib terminologik ma’no kasb etishi, uning umumiste’mollik, umumilmiy belgilarini yo‘qotishga, terminologik leksikaning yuzaga kelishiga olib kelgan.

Bularning hammasi til birliklarining dinamikaligini, harakatchanligini, nutq sharoitidan kelib chiqib, unga xoslanishini ko‘rsatadi. Bu protsess bir tomonlama emas, ya’ni umumiste’mol leksika doim terminologik leksikaga o‘taveradi-yu, terminologik leksika umumiste’mol leksikaga o‘tmaydi degan so‘z emas. Terminlar ham oddiy so‘z kabi qo‘llanishi mumkin. Masalan, *mashina*, *traktor*, *paravoz*, *samolyot* kabi terminlar so‘zlashuv va badiiy nutqda oddiy so‘z sifatida ishlatiladi. Bu bevosita terminologik tushunchaning ommalashib ketishi, xalqning bilim saviyasining oshishi kabi faktorlarga bog‘liq.

Ilmiy stil umumiste’mol leksikasining harakterli belgilaridan yana biri unda konkret narsa va hodisalarning nomini bildiruvchi so‘zlarga qaraganda belgi, holat, hajm, miqdor anglatadigan so‘zlarning ko‘proq qo‘llanishidir. Misol: *Materiallar qarshiligidagi yechiladigan masalalarning yuqorida aytilgan doirasi ancha keng bo‘lib, juda muhim amaliy masalalarni o‘z ichiga oladi.*

Bu gapda *yechiladigan*, *yuqori*, *aytilgan*, *ancha*, *keng*, *bo‘lib*, *juda*, *muhim*, *o‘z*, *ichi*, *oladi* so‘zlari umumiste’mol leksikasi bo‘lib, ularda konkret perdmetlik ma’nosini atash xususiyati yo‘q. Balki terminologik leksika sanalgan materiallar qarshiliqi va amaliy masalalar birliklari anglatgan tushunchalarning yuzaga chiqishga yordamlashgan. Ya’ni ularda grammatik tomon ustundir.

Belgi, hajm, holat, harakat, miqdor bildiruvchi umumiste’mol so‘zlar o‘zining umumiyligi, abstrakt ma’noda ishlatilishi bilan ham ajralib turadi. Misoldagi yuqorida, *ancha*, *keng*, *juda*, *muhim*, *o‘z* so‘zlari shu xususiyatga ega. Ilmiy nutqda qo‘llangan har qanday leksik birlik ma’no jihatdan umumiyligi ma’nosida qo‘llanishi bilan farq qiladi. Bundan xatto terminologik ma’noda ishlatilgan leksik birliklar ham mustasno bo‘la olmaydi. Masalan, meditsinada *qulog*, *jigar* haqida fikr yuritaladigan bo‘lsa, umuman *kishi qulog‘i yoki jigarining* umumiyligi xususiyati va uning faoliyati to‘g‘risida gap bo‘lishi mumkin. Ammo yakka

shaxsning masalan, birgina *Ahmadning yoki Salimning qulog'i yo jigari* to‘g‘risida gap yuritilmaydi.

Ilmiy stil uchun nominativ harakterga ega bo‘lgan so‘z ma’nosini ko‘chirish ham tipik hodisalardandir. Masalan, *kengaytirmaq*, *chuqur*, *suyanmoq* so‘zlarini olib ko‘raylik. *Kengaytirmaq* so‘zi konkret to‘g‘ri ma’nosida biror narsani kuch bilan kengaytirishga nisbatan ishlatiladi; *o‘raning og‘zini kengaytirmaq*. Shu ma’noda so‘zlashuv, badiiy nutqlarda ishlatiladi. Ilmiy nutqda *bilim doirasini kengaytirmaq* tarzida qo‘llanishi bilan nominativ ko‘chma ma’noga ega bo‘ladi. *Chuqur*, *suyanmoq* so‘zları ham ilmiy proza tilida *chuqur bilimga ega*, *chuqur tahlil qilingan*; *fan asoslariga suyanmoq*, *ilmiy fikrlarga suyanmoq* holda qo‘llanishi bilan nominativ ko‘chma ma’no bildiradi. Ammo ilmiy nutqda so‘z ma’nosini ko‘chirish obrazlilik uchun, ijobiy, salbiy ma’no ottenkalarni ifodalash uchun xizmat qilmaydi.

Ilmiy stil umumiste’mol leksikasini so‘z turkumlari bo‘yicha harakteristikalash ham uning o‘ziga xoslik belgilarini aniqlashga imkon beradi.

Ot turkumiga kiruvchi so‘zlar ham o‘zining umumiste’mollik xususiyatini saqlagan holda ishlatiladi: *Plastmassalarning qora metallarga nisbatan asosiy kamchiligi shundaki*, *birinchidan*, *ularning mustahkamligi yetarli darajada bo‘lmaydi*, *ikkinchidan*, *vaqt o‘tishi bilan tashqi muhit ta’sirida mexanikaviy xossalari*, *ba’zan esa detalning o‘lchamlari o‘z- o‘zidan o‘zgaradi*.

Bu parchadagi *kamchilik*, *vaqt*, *daraja*, *ta’sir* so‘zlarinigina umumiste’mol sanash mumkin. Ko‘rinadiki, ilmiy stilda ot turkumiga kiruvchi so‘z abstrakt ma’nosi bilan yoki umumlashgan ma’nosi bilan ishlatiladi.

Mustaqil s o‘z turkumlaridan olmosh o‘zining umumist’emollik xususiyatini ilmiy stilda to‘liq saqlaydi. Chunki olmoshning harakterli belgilaridan biri uning abstrakt va umumlashgan ma’nolarni ifodalashidir.

Mustaqil so‘z turkumlaridan olmosh o‘zining umumiste’mollik xususiyatini ilmiy stilda t o‘liq saqlaydi. Chunki olmoshning harakterli belgilaridan biri uning abstrakt va umumlashgan ma’nolarni ifodalashidir. Uning shu xususiyati ilmiy stil

talabiga mos keladi. Olmoshlarning barcha ma’no turlari ilmiy nutqda qo‘llanishini ko‘rish mumkin.

Ilmiy nutqda fellar ham keng qo‘llanadi. Mustaqil fellar ham, yordamchi fellar ham nisbiy tugal fikr ifodalash uchun xizmat qiladi. Ular ilmiy stilda abstrakt ma’no anglatishlari bilan ajralib turadi. O‘zining konkret ma’no xususiyatini yo‘qotadi. Bu bevosita ilmiy bayonning talabidan kelib chiqadi. Ularda desemantizatsiyalanish ko‘chli bo‘lib, so‘z o‘zining ma’no mustaqilligini yo‘qotadi. Grammatik tomon ustun turadi. Bularga quyidagi so‘zlarni ko‘rsatish mumkin: *bormoq, turmoq, Bildirmoq, yozmoq, solmoq, tekshirmoq, qo‘shilmoq, aks ettirmoq. Bog‘lamoq, bajarmoq, ifodalamoq, aniqlamoq, anglatmoq, erishmoq, tasvirlamoq, foydalanmoq, ishlatilmоq, o‘zgarmoq* va boshqalar.

Bu kabi so‘zlar ilmiy nutqda abstrakt harakterga ega bo‘lib, nominativ ko‘chma ma’no anglatishiga ko‘ra umumiste’mol leksikaga oid b o‘ladi.

Sifat va ravishlarda belgini kuchaytiruvchi eng, juda, g‘oyatda, nihoyatda, behad, cheksiz *kabi maxsus so‘zlarda ham doimiy umumiste’mollik xususiyati mavjud*. Ular so‘zlashuv, badiiy, publitsistik va rasmiy hujjat nutqlarida ko‘p ishlatiladi.

Ravish so‘z turkumiga oid *ko‘p, oz, ilgari, kam, hozir, bu erda, quyida, yuqorida, oldin, avval, doim, keyin, so‘ng, dastlab, endi har vaqt* kabi so‘zlarni umumiste’mol leksikaga kiritish mumkin.

Yordamchi so‘zlearning gapdagi vazifasi gap tuzish, gaplarni bog‘lashdir. Ya’ni ularda grammatik tomon ustundir. Shuning uchun yordamchi so‘zlearning deyarli hammasi umumiste’mol leksikasiga oid bo‘ladi. Lekin bu yordamchi so‘zlarda umuman stilistik differentsiyalanish yo‘q degan so‘z emas. Ularning ma’lum bir guruhi kitobiy leksikaga xosligi bilan ajralib tursa, ma’lum bir guruhi ilmiy stil uchun tipik sanalmaydi, ya’ni ilmiy bayon matnida ishlatilmaydi.

Yordamchi so‘zlar quyidagi belgilari bilan ilmiy stilda qo‘llanish jihatidan farqlanib turadi.

Ko‘makchilarining aksariyati ilmiy uslubda ishlatiladi. Masalan; *uchun, kabi, singari, bilan, ilgari, keyin, so‘ng, ko‘ra, yarasha, qarab, boshlab,*

qaraganda, beri, buyon, qadar, o'rtta, to'grisida ko'makchilarining ishlatalishi ilmiy stil uchun tipik bo'lsa, ularning varianti yoki sinonimi bo'lgan *uzra, uza chog'li, chamasi, yanglig'* formalari badiiy nutqqa xoslanganligi bilan ajralib turadi. Chunki *uzra, uza, yanglig'* k o'makchilarida poetikalik mavjud. *Chog'liq, chamasi* so'zlarida esa taxminiy miqdor va o'lchov ma'nosi bor. Ma'lumki, ilmiy bayon fikrni aniq ifodalaydi. Shuning uchun bu ko'makchilar tipik sanalmaydi.

Bog'lovchilarning *va, hamda, ammo, lekin, biroq, holbuki, yoki, yo, ham, ba'zan, chunki, shuning uchun, agarada, agar, garchi, deb, ya'ni* degan formalari ilmiy stilda ko'p ishlataladi.

Yuklamalarning *faqat, ham, xatto* formalari ilmiy bayon uchun mos keladi. Lekin his-hayajon, do'q, iltimos, buyruq, istak, taajjublanish, hayratlanish kabi ma'no ottenkalarini ifodalaydigan formalari ilmiy stil uchun tipik emas.

Modal so'zlar gapdan anglashilgan fikrga so'zlovchining munosabatini aks ettiradi. Turli funktional stillarda fikr ifodalash turlicha bo'lganligi sababli modallik formalari ham turlicha bo'ladi. Ilmiy stilning umumuiste'mol modal formalariga *xullas, demak, asosan, darhaqiqat, haqiqat, masalan, jumladan, umuman* so'zlarini ko'rsatish mumkin.

Undov va taqlid so'zlar doirasida umumiste'mol sanalgan leksik birliklar ilmiy stil uchun tipik hodisa emas. Undov va taqlid so'zlar so'zlashuv nutqining tipik belgilari sanaladi.

Umumilmiy leksika. Umumilmiy leksika leksik qatlamlardan bo'lib, kitobiy leksikaga oidligi, barcha funktional stillar doirasida qo'llanganda ilmiy tushunchalar anglatishi bilan terminologik va umumiste'mol leksikalaridan ajralib turuvchi leksik birliklardir.

Umumilmiy so'zlar ilmiy tushunchalar anglatishi jihatidan terminologik leksikaga yaqintursa, biror fan doirasi bilan chegaralanib qolmay, barcha fanlarga oid ilmiy adabiyotlarda keng qo'llanishi bilan terminologik leksikadan farq qiladi. U xatto og'zaki nutqda ham ko'p ishlataladi. Umumilmiy leksikaga misol sifatida *fan, adabiyot, masala, nazariya, ideya, kashfiyat, ilm* kabi so'zlarni keltirish mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda umumilmiy leksika tushunchasiga turlicha qarashlar bor. Belchikov kitobiy leksikani funktsional-stilistik aspekt bo'yicha bo'lganda umumilmiy leksikaga *metodika, metodologiya, analiz, sintez, tezis, kirish, xulosa* kabi so'zlarni kiritadi.

Ilmiy stil leksikasiga bag'ishlangan ishlarda uning leksikasi ikkiga: terminologik va umumilmiy leksikalarga ajratiladi, umumilmiy leksika doirasiga umumiste'mol leksika ham kiritiladi. Umumiste'mol so'zları ilmiy stil talabiga mos qo'llangani uchun alohida leksik qatlamga bo'linmaydi. Reyman umumilmiy o'rnida terminologi bo'limgan leksika terminini ishlatadi va *ideya, teoriya, ponimat, rassmatrivat* kabi so'zlarni misol sifatida keltiradi. Ammo mavjud adabiyotlarning deyarli barchasida umumilmiy leksika deganda turli fanlarda qo'llanadigan, faqat bir fan bilan chegaralanib qolmaydigan, ilmiy tushuncha bildiradigan so'zlar nazarda tutiladi. Quyida o'zbek tili materiallari asosida umumilmiy leksikaning o'ziga xos belgi-xususiyatlari haqida qisqacha to'xtalamiz.

Tarixiylik nuqtayi nazaridan umumilmiy leksikaning bir qismi umumiste'mol leksika, bir qismi esa terminologik leksikadan tarkib topgan deyishga asos bor. Umumiste'moldan o'tgan leksik birlklarga *voqeа, hodisa, vazifa, narsa, masala* kabi so'zlarni ko'rsatish mumkin. Ular barcha ilmiy adabiyotlar tilida ishlatilishidan tashqari, boshqa funktsional stillarda, shuningdek, oddiy muomala nutqida ham ko'p uchraydi.

Umumiste'moldan o'tgan so'zlar fan tilida uning talabiga bo'ysunadi, ilmiy tushunchalarni atashga xizmat qiladi. Misol: *Har qanday fizik hodisani tasvirlovchi nazariyani yaratishdan avval, real fizik material sistemani ma'lum darajada ideallashtirilgan sxema bilan almashtirish masalasini, ...hal qilish lozim. Har bir hodisani bevosita til materiallaridan kelib chiqib izohlashga alohida e'tibor berish natijasida ko'p hollarda hodisalarning haqiqiy mohiyatini ochishga erishildi.*

Bu ikki gapda *hodisa* so'zi turli ma'noda ishlatilgan. Birinchisida fizik hodisa, ikkinchisida *til hodisasi* haqida fikryuritilgan. Bunday so'zlarga juda ko'plab misol keltirish mumkin. Masalan: *biologik hodisa, mexanik hodisa* v.b.

Ko‘rinadiki, umumiste’ molga xos so‘zlarning ma’lum bir gruhi ilmiy nutqda qo‘llanganda o‘zining umumiste’ mollik xususiyatini yo‘kotib, umumilmiy leksikaga aylanadi. Bu hodisa so‘zning semantik strukturasidagi o‘zgarish bo‘lib, ilmiy tushunchalarni atashi bilan bog‘liqdir.

Umumilmiy so‘zlarni kelib chiqish jihatdan analiz qilsak. Ularning o‘z va o‘zlashgan qatlamlarga xosligi ma’lum bo‘ladi. O‘z qatlamga oid umumilmiy so‘zlar o‘zlashgan qatlamga qaraganda ozchilikni tashkil qiladi. Buning sababini ikki xil asoslash mumkin. Birinchidan, o‘z qatlamga oid so‘zlar asosan konkret va polisemantik harakterda bo‘ladi. O‘z qatlamga xos bo‘lgan so‘zlarning ana shu xususiyati ham umumilmiy so‘zlarning o‘zlashgan katlamdan iborat bo‘lishini talab qiladi. Chunki umumilmiy leksika abstrakt ma’noli bo‘lishi kerak.

Ikkinchidan, o‘rta asrda fors va arab tillarining ta’siri kuchli b o‘lgan. Arab tili din tili bo‘lishi bilan birga fan tili ham hisoblangan. Shu sababli o‘zbek tiliga *fan, adabiyot, ilm, nazariya, masala, usul, qoida, kashfiyat* kabi bir qancha so‘zlar o‘tganki, ular hozirgi kunda umumilmiy leksikadan qat’iy o‘rin olgan.

O‘z tilga oid umumilmiy leksikaga *tadqiqotchi, izlanish, bo‘lim, turkum, tekshirish, kirish* kabi leksik birliklarni ko‘rsatish mumkin.

Umumilmiy leksikani hozirgi kun nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqsak, bunday so‘zlarning asosiy qismini tashkil qilishi ma’lum bo‘ladi: Bularga *metod, metodologiya, gipoteza, analiz, sintez, struktura, sistema, kompleks, tezis, monografiya, ximik, fizik* kabi so‘zlarni kiritish mumkin.

Shuni ta’kidlash kerakki, fanning yana merosiylik va internatsionallik harakteri ham mavjud bo‘lib, shu faktor asosida tilning aloqa qilish jarayonida ilmiy tushunchalar bir tildan ikkinchi bir tilga o‘tadi. Shu protsessda bir tildan ikkinchi bir tilga ilmiy tushunchalarni anglatuvchi umumilmiy leksika ham o‘tib tilda qat’iy o‘rin egallaydi.

Xullas, o‘zbek tilining leksikasida umumilmiy qatlam mavjud bo‘lib, u kitobiy leksikaning bir qatlamini tashkil qiladi. Umumilmiy leksikaning yuzaga kelishi fan va texnikaning taraqqiyotiga, ilmiy adabiyotlarning juda ko‘plab nashr

etilishiga bog‘liq. Bunda bevosita rus tilining, rus fanining salmoqli ta’sirini asosiy omil deb bilish zarurdir.

Terminologik leksika. Terminlarning haqiqiy yuzaga kelishi va qo‘llaniish o‘rinlari ilmiy adabiyotlar tilidir. Har qanday yangi hosil qilingan termin birinchi marta ilmiy asar tilida ishlatiladi, ko‘pchilikka ma’lum bo‘lib, ommalashgandan keyin nutqning boshqa turlariga, jumladan, gazeta, jurnal, radio, televidenie, so‘zlashuv nutqlariga o‘tishi mumkin. Masalan, *uchuvchi apparat*, *vaznsizlik* kabi astronomiya terminlari shular jumlasiga kiradi. Ammo bu fikrdan barcha terminlar o‘zining «maxsuslik» xususiyatidan, ya’ni tor mutaxassislar nutqiga xoslik belgisidan mahrum bo‘lib, adabiy til leksikasiga o‘tib, ommalashib ketaveradi degan xulosa chiqmaydi. Terminlarning ma’lum katta bir qismi o‘zining tor mutaxassislar nutqiga xoslik xusustyatini doimo saqlaydi. Masalan, *fonema*, *leksema*, *sintagma* kabi tilshunoslik terminlari barcha o‘zbeklar uchun tushunarli deb ayta olmaymiz. Bu til bilimi mutaxassislari uchungina tushunarlidir, xolos.

Termin bilan oddiy so‘zlarning o‘zaro munosabati ikki tomonlamadir. Bir tomonidan, terminologik leksika adabiy til leksikasiga o‘tib ommalashib ketsa, ikkinchi tomonidan, oddiy so‘z terminologik leksikaga o‘tib maxsuslanish belgisi ega bo‘ladi. Masalan, *so‘z*, *gap t o‘ldiruvchi*, *ega* kabi tilshunoslik terminlari shular jumlasidandir.

Ilmiy nutq adabiy til leksikasini terminologik leksika hisobiga boyituvchi birdan bir manba hisoblanadi. Adabiy tilning ilmiy stilidan boshqa funksional stillari ilmiy nutqchalik turli tillarga xos bo‘lgan leksik birliklarni o‘zlashtira olmaydi. Bu jihatdan ilmiy nutq o‘ziga xos alohida xususiyatga ega. Uning o‘ziga xoslik xususiyatishunda ko‘rinadiki, turli tilldarga oid ilmiy adabiyotlar tili bir fan doirasida bir-biriga yaqin turadi, ya’ni ularda qo‘llangan termin va simvolik belgilarda umumiylilik, bir xillik mavjud b o‘ladi. Terminlardagi bir xillik adabiy til leksikasi doirasida terminologik internatsional qatlarni yuzaga keltiradi. Terminologik internatsional qatlarni bir tomonidan ilm, fan, texnikaning qanchalik

taraqqiy etganlik belgisini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, uning yanada rivojlanishi uchun asos bo‘ladi.

Ilmiy nutqda internatsional terminlarning ishlatalishi ilmiy nutq talabiga mos qo‘llanishini, uning funktsionallik harakterini ko‘rsatadi. Ilmiy adabiyot tilida tushunchaning umumiyligi xususiyati o‘z ifodasini terminda topadi. Shu jihatdan termin ham umumiy bo‘lib, aslida fanning o‘zi umumiy, internatsional harakterga egadir. Shu sababli turli millat kishilari fan tushunchasini bir xil idrok qiladilar. Fan tushunchasini bir xil idrok etish terminlari ham ularni bir ma’noda ishlatishga olib keladi.

Biz ilmiy nutq leksikasini analiz qilganimiz uchun terminning funktsionallik harakteridan kelib chiqib, termin bilan bog‘liq quyidagi masalalarga to‘xtab o‘tmoqchimiz: 1. Termin belgilari. 2. So‘zda mavjud bo‘lgan leksik-semantik protsesslarning termindagi o‘ziga xos belgilari. 3. Terminning so‘z turkumlariga munosabati. 4. Terminning stilistik bo‘yog‘i.

Biz quyida terminologik leksiksikaning ana shu xususiyatilarini yoritish bilan uning lingvostilistik, funktsionallik harakterini ochishga harakat qilamiz.

Termin belgilari. Terminning o‘ziga xos belgi-xususiyatlari bayon etilganda u, odatda, oddiy so‘zga qarama-qarshi qo‘yiladi. Shu asosda uning o‘ziga xos belgilarini ochishga harakat qilinadi. Termin – notermin. Shu bilan oppozitsiya nuqtayi nazaridan terminga berilgan lingvistik ta’riflarni bir joyga to‘plasak, ko‘pchilik tadqiqotchilar terminning quyidagi belgi-xususiyatlarini alohida ta’kidlashdi: 1. Termin bir ma’noli yoki bir ma’noli tendentsiyaga ega. 2. Termin aniq nominativ funktsiyaga ega bo‘lib, unga emotsiyonallik, ekspressivlik, modallik funktsiyalari xos emas. Termin o‘zining bu xususiyatini kontekstda ham, kontekstdan tashqarida ham saqlaydi. 3. Terminning ma’nosi tushunchaga tengdir. 4. Termin stilistik jihatdan neytraldir. 5. Terminolog leksika alohida sistemadir. 6. Termin funktsiyadir va boshqalar. Termin bilan oddiy so‘z o‘rtasidagi munosabat ana shu olti belgiga ko‘ra farq qilishi lingvistik adabiyotlarning deyarli barchasida qayd etiladi.

Ilmiy adabiyotlar bilan tanishib chiqish shuni ko'rsatadiki, terminning yuqorida sanab o'tilgan o'ziga xos spetsifik belgilariga bo'lgan munosabatning o'zida bir xil qarash yo'q. Masalan, terminning birgina sistemali xususiyatini ko'radigan bo'lsak, ilmiy adabiyotlarda bu hodisa har xil talqin etiladi. Ba'zi olimlar terminning sistemaligini adabiy tilning so'z yasalish xususiyatidan izlashadi (ya'ni har bir fanning terminlari o'z yasalishlari jihatidan ajralib turadi). Ba'zi olimlarning terminologiyani bitta sistemaga birlashtirib, uni «ichki sistema» deb, o'z navbatida til sistemasining ichida yashaydi degan fikrngi ta'kidlaydilar. Ayrim olimlar esa terminologik leksikaning sistemaligini uning leksik-semantik protsesslaridan izlashga harakat qiladilar. Bularni umumlashtirib shunday xulosa chiqarish mumkin: 1. har bir fanning terminlari bir sistemadir; 2. bir butun terminologiya bitta sistemadir; 3. Har ikki sistema ichki sistema bo'lib, ular til sistemasining ichida yashaydi.

Terminlarning sistemalik harakteri o'r ganilganda ularni adabiy til birliklariga taqqoslash kerak. Shunda ularning qanday leksik, semantik, morfologik belgilariga ko'ra oddiy so'zlardan farq qilishi ma'lum bo'ladi, terminning sistemalik xarakteri ochiladi. Bu ayniqsa, bir fan terminlarini o'r ganishda aniq ko'rindi. Har bir fan terminini analiz qilib, uni kontekstdan chiqarib oddiy so'zga qarama-qarshi qo'ysak, yuqorida sanab o'tgan olti belgi terminga xosdek ko'rindi. Ammo bir butun ilmiy adabiyotlar tilida ishlatilayotgan terminologik sistemani funktsionallik nuqtayi nazaridan oddiy so'zlarga binar oppozitsiyaga qo'ysak, ular yuqorida qayd etilgan olti belgidan 5 tasida qat'iy emasligi ko'rindi.

Aslida terminning spetsifik belgilarini aniqlashda uni oddiy so'zga qarama-qarshi qo'yish u qadar to'g'ri emas. Chunki termin so'z shakliga ega bo'lishdan tashqari, birikmali ham bo'ladi: *umurtqasiz hayvonlar*, *murtqali hayvonlar*, *shaxssiz gap*, *ergash gapli qo'shma gap*, *bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gap* kabi.

Oddiy so‘zning leksik ma’no anglatmay faqat grammatik ma’noga ega bo‘lgan turlari ham bor. Bu o‘rinda terminning so‘zga qarama-qarshi qo‘yilishi nisbiy bo‘lib, leksik ma’no anglatgan so‘zlargina nazarda tutilgan.

So‘z tilda yakka holda mavjud bo‘lmay, doimo boshqa so‘zlar bilan munosabatda bo‘ladi, ya’ni sistema ichida yashaydi. Uning bu xususiyatini so‘z yasalishi va leksik-semantik protsesslar misolida ham ko‘rish mumkin. Masalan, so‘zlar o‘z yasalish modellariga ega bo‘lib, polisemiya, omonimiya, sinonimiya, antonimiya oddiy so‘zlarga xos xususiyat, tariixiylik jixatdan so‘zlar o‘z va o‘zlashgan qatlamlardan tarkib topadi. Terminlarga ham shu nuqtayi nazardan yondashsak, har bir fan terminlariga xos so‘z yasalish; polisemiya, sinonimiya, antonimiya, omonimiya mavjudligi, genetik jihatdan turli tillarga xoslik kabi hodisalar ko‘zga tashlanadi. Masalan, leksika termini fan va lugat sostavi ma’nosini, shuningdek, so‘z ma’nosini anglatishi mumkin. Demak, bunday xususiyatlar terminlarning til qonun-qoidalariga bo‘ysunishini, til normasi doirasidan chetga chiqmasligini ko‘rsatadi.

Termin bilan oddiy so‘z o‘rtasidagi farq asosan tushuncha doirasida chegaralanadi. «Termin lug‘aviy ma’nosini chegara belgisi, *chek*, *chegara* ma’nolarini anglatadi». Uning anglatgan ma’nosini tushuncha anglatgan ma’noga teng keladi. Termin tushunchani aniq harakteristikaydi.

Tushuncha konkret, aniq bo‘lmasa, termin ham noaniq bo‘ladi. Terminga ana shu tushunchani ifodalash yuklatiladi. Masalan. «*bo‘g‘in*», terminini «*bir havo zarbi bilan chiqqən bir tovush yoki tovushlar kompleksiga bo‘g‘in deyiladi*» degan ta’rif bilan izohlash mumkin. Ko‘rinadiki, termin ta’rifiga ega *bo‘g‘in* so‘zi oddiy so‘z holida qo‘llanganda turli ma’nolarda qo‘llanilishi mumkin: *qo‘l bo‘g‘inlari*, *yosh bo‘g‘in* v.b.

So‘z nominativ funktsiyadan tashqari ekspressivlik, emotSIONallik, modallik funktsiyalarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Ya’ni so‘zda shu kabi funktsiyalar birinchi rejada turishi mumkin. Masalan, *lab* o‘rnida arxaik so‘z *dudoq* ishlatsa, go‘zallik, chiroylilik birinchi rejaga chiqariladi.

Terminda esa nominativ ma’no birinchi rejala turadi. Ekspressiv-emotsionallik ifodalash uchun termin ishlatilmaydi. Hatto oddiy so‘z yoki birikma terminologik ma’no kasb etganda ham uning ekspressiv-emotsionalligi so‘ndiriladi. Masalan, *yalqovlar*, *asalx o‘r*, *olaxurjunlar*, *qilich shoxli kiyik* kabi zoologiya terminlari ekspressiv-emotsionallikdan mahrumdir. Ularda «qotgan» «yashirin» ekspressivlik mavjud.

Ko‘rinadiki, termin ilmiy adabiyotlar tilida qo‘llanganda o‘zining neytrallik xususiyatini doimo saqlaydi.

Termin sistemadir degan tushunchani ham konkretlashtirish zarur. Odatda, sistema deganda til qurilish sistemasi: fonetik, leksik, so‘z yasalishi, morfologik va sintaktik sistemalar tushuniladi.

Darhaqiqat, oddiy so‘zlar ham termin funktsiyasida qo‘llana oladi. Oddiy so‘z yoki so‘z birikmasining termin sifatida ilmiy adabiyot tilida qo‘llana olmasligiga hech qanday asosimiz yo‘q. U o‘zining bunday belgi-xususiyatini ilmiy nutqdan tashqarida yo‘qotish mumkin G.Gak o‘z maqolasida termin bilan so‘zning farqli munosabatini ifoda rejasiga leksik birlik-oddiy so‘z. 2. Bir rejali leksik birlik-termin. 3. Ikki rejaliq leksik birlik-bir o‘rinda oddiy so‘z, ikkinchi bir o‘rinda termindir.

G.Gakning fikricha bir rejali oddiy so‘zlar doimo o‘zining oddiy so‘zlik xususiyatini saqlay oladi. Ular ilmiy adabiyotlar tilida ham termin sifatida qo‘llanmaydi. Bularga atoqli otlar, olmosh va yordamchi so‘zlar kiradi.

Ikkinchi tip haqiqiy terminlarga xos. U kontekstda ham, kontekstdan tashqarida ham o‘zining terminologik xususiyatini saqlay oladi. Ularni oddiy so‘z bilan yonma-yon qyaysak, o‘zining qisman «begona»ligi, oddiy so‘zdan uzoqlashganligi bilan ajralib turadi. Masalan, *tangens*, *sinus*, *affiks*, *prafiks*, *oksil*, *oltingugurt*, *umurtqasizlar* va b.

Ko‘rinadiki, ularning bir qismini internatsional terminlari tashkil qiladi va ular kontestda ham, kontekstdan tashqarida ham o‘zining terminlik xususiyatini saqlaydi.

Ikkinci qism o‘z til imkoniyatlaridan yasalgan terminlar bo‘lib, ularga affiks yoki so‘z qo‘silganda yo birikma hosil qilganda oddiy so‘zdan ajraladi va terminlik xususiyatini doimo saqlaydi.

Uchinchi tip leksik birliklarning termin bo‘lishini kontekst belgilaydi. Ular bir o‘rinda termin, ikkinchi bir o‘rinda oddiy so‘z sifatida qllanadi. Bu tip asosan, o‘z til imkoniyatlari zaminida hosil qilinadi. Masalan: *so‘z*, *gap*, *bog‘lovchi*, *to‘ldiruvchi* kabilar bir o‘rinda oddiy so‘z, bir o‘rinda tilshunoslik terminlari sifatida ishlatilishi mumkin. O‘z til zaminidan yasalgan terminlar (*kuch*, *bo‘g‘in* v.b.) da oddiy so‘z ma’nosining «o‘chirilishi» va yangi terminologik ma’nuning yuklatilishi fan tilining funktsionallik harakteriga bog‘liqdir. Boshqacha aytganda, nutqiy aloqaning maqsad, vazifasidan kelib chiqadi.

Ma’lum bo‘ladiki, keng ma’noda termin ham leksik birlik sanalsa, ularning oddiy so‘z yoki termin bo‘lishini kontekst belgilaydi. Kontekstda leksik birlikning qanday funktsiya bajarishi termini harakterlay oladi.

1.3. Ilmiy stil leksikasining chegaralanganligi

Ilmiy stilning-umumiste’mol, umumilmiy va terminologik leksikalarini o‘rganish bilan birga uning leksik sostavining chegaralanganlik belgisini aniqlash ham muhimdir. Chegaralanganlik masalasi, ham stilni belgilovchi omillardan biri sanaladi. Ilmiy stil leksikasining chegaralanganlik belgisi ayniqsa, badiiy nutqqa solishtirilganda yaqqol seziladi. Ilmiy va badiiy nutqqa oid real tekstlarni bir-biriga qiyoslasak, har bir nutq turi yangi leksik birliklarning qo‘llanish chastotalari jihatidan ajralishi ma’lum bo‘ladi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining ilmiy stili badiiy, publitsistik stillarga qaraganda kechroq shakllangan bo‘lsa-da, ammo u o‘zining, leksik va grammatik xususiyatlari bilan boshqa funktsional stillardan ajralib turadi.

Ilmiy stil leksikasining tipik belgilaridan biri unda qo‘llangan umumiste’mol, umumilmiy va terminologik leksikalarning adabiy til normasiga bo‘ysunishi hamda so‘zlarning nominativlik xususiyatini saqlashidir.

Ilmiy proza tilida adabiy tilga xos so‘zlarning shuningdek, yangi internatsional terminlarning ko‘p ishlatilishi uning leksikasini badiiy nutq hamda umumxalq tili leksikasidan ham boyroq, kengroq qilib ko‘rsatadi. Bu tashqi ko‘rinish jihatidangina shunday. Agarda ilmiy nutq leksikasi statistik analiz qilinadigan bo‘lsa, uning leksik birliklarining chegaralanishi, sinonimiyaga u qadar yo‘l qo‘ymasligi, so‘z, va terminlarning ko‘p takrorlanishi, takror esa tipik hodisalardan biri ekanligi ma’lum bo‘ladi.

Yangi leksik birliklarning qo‘llanishi jihatidan ilmiy proza, nutqi badiiy nutqqa qaraganda ancha “kambag‘al”dir. Fikrimizning isboti uchun ilmiy va, badiiy nutq leksik birliklari ning qo‘llanilishi bir-biriga qiyoslaymiz. Buning uchun kichik tekstlarga murojaat qilish o‘rnlidir.

Ilmiy tekst. Fiziradan: *Tabiatdagi jismlarning ma’lum sharomtda elektr zaryadga ega bo‘lishi (elektrlanishi) maktab fizika kursidan ma’lum. Jismda, elektr zaryadining borligi uning,boshqa zaryadlangan jismlar bilan o‘zaro ta’sirlanishdan namoyon bo‘ladi. Elektr zaryadlari ikki turda bo‘lib, shartli ravishda musbat va, manfiy deb ataladi. Bir xil ishorali zaryadlar bir-birini itaradi, har xil ishoralilari esa o‘zaro tortishadi. Elektr zaryadi elementar zarralar deb ataladigai ba’zi zarralarning asosiy xususiyatlaridan biridir. Barcha elementar zarralarning zaryadi (agar uning zaryadi nolga teng bo‘lmasa) absolyut qiymati jihatidan birday bo‘ladi. Bunday zaryadni elementar zaryad deb aytish mumkin. Bu zaryadni s harfi bilan belgilaymiz (Savel’ev, 7). Bu tekstda jami 90 ta so‘z formasi (znak, ishora) qatnashgan bo‘lib, shulardan: zaryad 11, elektr 5, bo‘lmoq fe’li 5, elementar, zarra, deb jism so‘zları 3, ma’lum, uning, ishora, xil, o‘zaro, bilan so‘z formalari esa 2 martadan takror qo‘llangan. Demak, 13 ta so‘z formasi 45 marta takrorlangan. Ko‘rinadiki, tekstda qatnashgan 90 ta so‘z formasining yarmi takrorga qo‘l qo‘ygan. Bularni quyidagi formulaga solish mumkin. X – tekstda qo‘llangan barcha so‘zlarning yig‘indisi, Ya – tekstdagi har bir yangi leksik birlik, tekstdagi so‘z formalarini bu formulaga solsak, quyidagi ko‘rinish hosil qilinadi: X=90, 45+13=58 Ya=58. Demak, tekstda 58 ta yangi leksik birlik qatnashgan bo‘lib, ularning qo‘llanilishi chastotasi 90 ga tengdir.*

Chizmachilikdan. *Chizma* — buyumning yoki buyum bir qismining grafik tasviri bo‘lib, shu buyumni tayyorlashda asosiy hujjat hisoblanadi. Har bir buyumning konstruktor tomonidan avval loyihasi tuziladi. Buyumning loyihasini tuzish davrida rasmlar, eskizlar, sxemalar, chizmalar chiziladi (Bogolyubov). Bu tekstda jami 32 ta ishora qatnashgan bo‘lib, shundan: buyum – 5, loyiha, chizma, bir tuzmoq so‘z formalari 2 martadan takror qo‘llangan.

Demak, $X = 32$, $Ya = 24$. Ya’ni 5 ta so‘z formasining takrori 13 tadir. $32 - 13 = 19$, $19 + 5 = 24$.

Biologiyadan: *Gullilar yoki yopiq, urug‘lilar o’simliklar dunyosining eng yosh va keng tarqalgan guruhi bo‘lib, hozirgi geologik davrning hukmron o’simligi hisoblanadi. Yopiq urug‘lilar tuzilishi, g‘oyat, murakkabligi, takomillashganligi, biologik tiplarining nihoyatda xilma-xilligi, turlarining behad ko‘pligi, kishilar va hayvonlar hayotida tutgan o‘rni bilan o’simliklarning, boshqa guruuhlaridan keskin farq qiladi. Ularning dastlabki turlari mezazoy erasining yura davrida paydo bo‘la boshlaydi. Ammo bu davrda ularning turlari kam bo‘lgan va siyrak tarqalgan. Sodda vakillarining mikrosporasi (changlari) yura davrining ohaktoshlaridan topilgan* (Sahobiddinov, 9).

Bu tekstda hammasi bo‘lib 74 ta so‘z formasi ishtirok etgan. 74 ta so‘z formasidan: davr – 4; o‘simlik, turlari va bo‘lmoq – 3; ular, guruh, yopiq urug‘lar – 2 martadan takrorlangan. Demak, tekstda ishtirok etgan 9 ta so‘z formasining takrorlanishi 24, $74 - 24 = 50$ $50 + 9 = 59$, $X = 74$, $Ya = 59$.

Biz fizika, chizmachilik va botanika fanlariga oid tekstlarni analiz qildik. Boshqa fanlarga oid, tekstlarning analizi ham shunday natija berishi tabiiydir.

Biz tekst hajmini hisobga olib 100 ta so‘z formasiga etmagan mikrotekstlarni keltirdik. Agarda makrotekstlar buyicha analiz qilsak, so‘z formalari takrorlanishining ortishini ko‘ramiz. Yuqorida keltirilgan parchalarni yana davom ettirsak, bevosita ularda elektr, zaryad, zarra, buyum, loyiha, chizma, o‘simlik, tur, davr kabi leksik birliklarning miqdori yanada oshib boradi. Ammo yuqoridagi kichik parchalarni keltirish orqali ham ilmiy stil leksikasining chegaralanganligini aniqlash mumkin. Shuning uchun biz makrotekstlarga murojaat qilmadik.

Endi badiiy stildan misol keltiraylik: *Kun bo ‘yi shag‘al tashigan Nazirpolvon qurilish bazasidan hammadan keyin chiqdi. Samosvalini muyulishdagi kolonka oldida to‘xtatib, kuylagini echdi, boshini vodoprovodning tagiga tutib, shaloplatib yuvindi. Keyin, qonib suv ichib, kuylagi bilan artindi. Yaqindagina ustirgan ingichka, mayin muylovini silab qo‘ydi. Ko‘p o‘tmay, mashina guvillab katta yo‘lga chiqdi-da, shahar tomon elib ketdi* (U. Umarbekov, Qiyomat qarz, 5-b). Bu parchada jami 48 ta so‘z formasi ishtirok etgan bo‘lib, shundan faqat *kuylak* va *chiqmoq* so‘zlarigina 2 marta takrorlangan.

Bulardan ma’lum bo‘ladiki, badiiy stil ham qisman so‘z takroriga yo‘l qo‘yadi lekin u sezilarli darajada ko‘zga tashlanmaydi. Ko‘pincha polesemantik xarakterda bo‘ladi. Miqdor jihatdan ilmiy stil darajasidek qo‘llanmaydi. Ilmyy stil leksikasining so‘z takroriga yo‘l qo‘yishining asosiy sabablaridan biri, uning ilmiy nutq talabiga bog‘liqligidir. Ilmiy stilda so‘zning terminologik ma’no kasb etishi sinonimianing chegaralanishiga olib keladi. Natijada bir so‘z konkret bir ma’noga ega bo‘ladi. Bir so‘ziинг bir ma’noda ishlatilishi takrorni talab qiladi.

Xullas, ilmiy stil leksikaning “kambag‘al” ligi, sostavining bir xilligi, takrorga ko‘p yo‘l qo‘yilishini ilmiy stilning o‘ziga xos tipik belgilaridan biri deb aytish mumkin.

Ilmiy nutq o‘ziga xos simvolik belgilarning ishlatilishiga ko‘ra boshqa funktional stillardan ajralib turadi. Ilmiy nutqda simvolik belgilar keng ishlatilsa, boshqa funktional stillarda, jumladan, so‘zlashuv, badiiy publisistik va rasmiy-hujjat nutqlarida bunday simvolik belgilarga ehtiyoj u qadar sezilmaydi.

Ilmiy stilga bag‘ishlangan tadqiqotlarda simvolik belgilar ilmiy stilning tipik belgilariga kiritiladi, shu xususiyati bilan ilmiy stil boshqa funktional stillardan ajralib turishi ta’kidlanadi. Ammo simvolik belgilar til fakti sanalmagani uchun ular atroflicha o‘rganilmaydi, misollar keltirish bilan chegaralanadi.

Aloqa vositasi sifatida xizmat qilayotgan tilni tabiiy til simvollarini sun’iy til deb faraz qilish mumkin. Chunki tabiiy tilning tashqi – formal tomoni va ichki – mazmun tomoni bo‘lsa, sun’iy til simvollarida ham tashqi tomon va mazmun tomoni bordir. Sun’iy til ya’ni simvollar tabiiy milliy til bar’erini chetlab o‘tib, bir

umumiy mushtarak aloqa vositasini yaratish zaruriyati zaminida har bir fan doirasida yuzaga kelgan. Hozirgi zamон fan tillarini bunday logik-matematik tilsiz tasavvur etish mumkin emas.

Tabiiy, til kishilarning o‘zaro bir-birlari bilan aloqa qilish zaruriyati asosida yuzaga kelgan bo‘lsa, sun’iy til tabiiy til bazasi asosida fan taraqqiyoti, abstraktsiyasi asosida yuzaga kelgan. Shu sababli ilmiy nutqda simvollarni tabiiy til, tabiiy tilni esa simvollar to‘ldirib, aniqlab boradi, ya’ni har ikkalasi bir-biri bilan uzviy aloqada bo‘ladi. Ilmiy ijodiy tafakkurda simvollar birinchi o‘rinda turadi. Masalan, simvollar matematika fanida masalalarni yechishda eng qulay usul sanaladi. Uni tabiiy tilga aylantirib bo‘lmaydi.

Sun’iy til, simvollarga ma’lum bir ideya, tushuncha anglatuvchi belgilar, formulalar, chizmalar, rasm va diagrammalar kiradi. Ularda ma’no, mazmun bor. Har bir fan mutaxassislari o‘z fanlari doirasida bunday simvolik belgilarni kelishilgan, shartlashilgan holda ishlatajilar. Aks holda mazmun tushunchasi yo‘qoladi.

Ilmiy nutq fikrni izchil, ketma-ket, mantiqiy bog‘lash, isbotlash yo‘li orqali bayon etadi va shu buyon protseesida simvolik belgilarga murojaat qiladi. Bularning ilmiy adabiyotdagi roli kattadir.

Simvolik belgilar shartli belgilar sanaladi, chunki ular bir butun ideya, tushuncha anglatadi. Bu belgilarning ko‘pchiligi so‘z yoki bir butun gapga teng bo‘ladi. Masalan, ximiya fanida, turli reaktsiya, elementlar uchun maxsus ideografik belgilar kabul qilingan. N₂O ideografik belgisi suvning ximiyaviy xossasini aks ettiradi. Bu ideografik belgilarni fonografii yozuv bilan o‘zbek tilida o‘qilishini “xash ikki o” deb yozamiz. Mazmunan teng kelishi yoziladigan bo‘lsa “suv” deb yozamiz. Demak, fotografik yozuv xususiy, ideografik yozuv esa umumiydir. Chunki N₂O simvolik belgisini rus, ukrain, arman, nemis, o‘zbek bir xil idrok etadi va tushunadi. Lekin, “xash -ikki o”, “suv”ni o‘zbek millatidan boshqasi ishlatmaydi ham, tushunmaydi ham.

Ilmiy nutqdagi simvolik belgilar ma’lum bir fan doirasida bir xil qabul qilingani uchun shu, fan mutaxassislari qaysi millat kishilari bo‘lishidan qat’iy

nazar, uni bir xil idrok qiladilar. Masalan, matematika fanida (perpendikulyar), fizikadagi F kuchlanish) v. b.

Simvolik belgilar tushunish darajalariga ko‘ra shartli ravishda ikki bo‘linadi:

1. Umumiyligi.

2. Xususiyatligi.

Umumiyligi Umumiyligi ideografik (simvolik) belgilar mutaxassislik bo‘yicha chegaralanmaydi. Bunday simvolik belgilarni hamma biladi. Bularga shartli ravishda o‘rta maktab darsliklaridagi simvolik belgilarni va har qanday nutqda ishlatilishi mumkin. Masalan, matematik + (qo‘schiuv), – (oluv), : (bo‘lish), X (ko‘paytirish), № (nomer), 1, 2, 3 ... IV, V kabi simvolik belgilar; har qanday nutqda ishlatiladigan (nuqta), ! (undov), ? (so‘roq), – (tire) kabi belgilari va h. k. Bular kishining yoshidan, kasbidan mutaxassisligidan, jinsidan qat’iy nazar ko‘pchilik uchun tanishdir.

Xususiy simvolik belgilar ma’lum bir fan doirasiga ko‘ra chegaralanadi. Ularni hamma ham tushunavermasligi, mumkin. Ular ma’lum soha mutaxassislari tomonidan ishlatiladi. Ular uchungina tanishdir. Ular asosan, ilmiy-nazariy adabiyotlarda q o‘llanib, nazariy tushunchalarni bildiradi. Demak xususiy simvolik belgilar bir fan doirasidagi nazariy tushunchalarni aks ettiruvchi belgilar sistemasidir.

Xususiy simvolik belgilar ishlatilgan ilmiy adabiyotlar qaysi tilda yozilishiga qaramay, ular o‘rtasida birmuncha yaqinlik seziladi. Masalan, ingliz tilida yozilgan organik ximiyaga oid ilmiy asarni o‘zbek ximigi, garchi u tilni mukammal bilmasa-da, lekin ma’lum tasavvurga ega bo‘lishi mumkin. Chunki o‘zbek ximigi uchun simvolik belgilar, shartli kisqartmalar, internatsional terminlar tanishdir. Shular ilmiy fikrning umumiyligini ta’minlaydi.

Ideografik (simvolik) belgilarni fonografik yozuvga qarab quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkin:

1. Morfemogramma – ya’ni morfemaga teng simvolik belgi. U asosan, fonografik yozuvlar tarkibida keladi. Ularga *-inchi*, *-nchi*, *dir* belgisini ko‘rsatish mumkin.

1.Logogramma – so‘zga teng keluvchi simvolik belgi. U sostaviga ko‘ra, sodda va qo‘shma so‘zlarga teng keluvchi simvolik belgi. U sostaviga ko‘ra sodda va qo‘shma so‘zlarga teng b o‘lishi mumkin. Ya’ni logogrammali belgi fonografik yozuv bilan ifodalansa u bir so‘zga, qo‘shma so‘zga va so‘z birikmasiga teng keladi. Masalan, ximiyada H_2O – (suv), C – (uglerod), H_2SO_4 – (sulfat kislotasi), $Ca(OH)_2$ Kaltsiy gidroksid); fizikada F (kuch), m (massa), v (tezlik), V (hajm), S (yuza), P (og‘irlik), h (nisbiy deformatsiya), Sin (sin), tg(tangens), a (al’fa), // (parallel) belgilari.

1.Frazeogramma – gapga teng bo‘lgan simvolik belgi. Bunday simvolik belgining anglatgan tushunchasini fonografik yozuvga aylantirilsa, u bir butun gapga teng keladi.

1.Bir butun tushuncha teng keluvchi simvolik belgilar. Bularni frazeogramma doirasiga kiritib bo‘lmaydi, chunki bunday belgilar bir necha gaplar abzatslar orqali izohlanishi mumkin. Bunga tilshunoslikda nutq apparatining rasmiy- siyosiy iqtisod fanida qo‘llanadigan turli digrammalar mashinasozlikda chizilgan turli chizma qismlarining rasmlari misol bo‘ladi. Bular xarakteriga ko‘ra ikkiga bo‘linadi. Bularning birinchisida simvolik belgi fonografik yozuv bilan izohlanadi. Masalan, tilshunoslikdagi nutq apparatining sxemasi 1, 2, 3 raqamlari bilan nomerlanib yozuv orqali izohlanadi. Ikkinchi bir turida esa fonografik yozuv (ya’ni harfli yozuv) ishtirok etmasligi mumkin. Bu ayniqsa, matematikadagi formulalarda ko‘rinadi.

Har bir fan o‘zining shartli qisqartmalariga ham ega bo‘ladi. Ya’ni bir fanga oid bir necha adabiyotlarda bir xil shartli qisqartmalar ishlatiladi. Bu shartli qisqartmalar fan mutaxassislari tomonidan kelishilgan, norma sifatida qabul qilingan bo‘ladi. Masalan, til tarixiga oid bir necha ilmiy adabiyotlarda shunday qisqartmalarni uchratish mumkin: Shn.— Shayboniynoma, DLT.— Devoni lug‘atit-turk, Bn. — Bobirnoma, Mn.— Muhabbatnoma, Sh.-tar.— Shajarai tarokima, Sh.-turk. — Shajarai turk v. b.

Demak, ilmiy nutqda ishlatilgan simvolik belgilar va shartli qisqartmalar, birinchidan, qaysi fanga oidligi bilan ajralib turadi. Ikkinchidan, simvolik, ya’ni

ideografik belgilar hamda shartli qisqartmalar fonografik yozuvga yordam beradi, bayonni ixchamlashtiradi, tushunish, idrok qilishni osonlashtiradi. Uzundan-uzoq jumla tuzish, bayon qilishni chegaralaydi.

II. BOB. TERMINLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

2.1. Terminlarning mohiyati va xususiyatlari

Terminlarning leksikaning bir ko‘rinishi sifatida ilmiy adabiyotlar tilida ishtirok etishi, qatnashishi, ularning stilistik belgisini aniqlamaydi. Chunki termin ilmiy nutqdan boshqa nutq turlarida ham ishlataladi. bu o‘rinda terminning o‘z terminologik ma’no xususiyatidan emas, balki har bir nutq turining o‘z kommunikativ aloqadagi maqsad, vazifasidan kelib chiqib, terminlarning ilmiy adabiyotlar tilida qo‘llanishini tekshirsak, termin ilmiy nutqning status deffrentsional belgisi bo‘la olishini ko‘ramiz.

Internatsional terminlarning hamda oddiy so‘zlarning termin darajasiga ko‘tarilib, fan tilida juda ko‘plab qo‘llanishi oddiy so‘zlarga xos bo‘lgan leksik-semantik protsesslar (polisemiya, omonimiya, sinonimiya va antonimi)ning terminlar doirasida ham yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Terminlarning leksik-semantik protsesslarini faqat ilmiy adabiyotlar tilini analiz qilish orqali aniqlash mumkin. Bu ilmiy nutqning o‘ziga xos stilistik belgisi sanaladi.

terminlarning leksik-semantik protsesslarini leksikologiya kategoriyalari nuqtayi nazaridan tekshirsak, unda etrminlar bilan oddiy so‘zlarning o‘zaro umumiy, o‘xhash hamda leksik-semantik jihatdan oddiy so‘zdan farq qiluvchi o‘ziga xos belgilari ko‘rinadi.

terminlarda mavjud bo‘lgan leksik-semantik protsesslar: polisemiya, omonimiya, sinonimiya, antonimiya masalasi munozarali bo‘lib, unga aniqlik kiritilganicha yo‘q. Ba’zi olimlar terminlarda bunday leksik-semantik protsesslar mavjud deyishsa, ba’zilar bu kabi belgilar yo‘q deb ko‘rsatishadi. Terminlarda leksik-semantik protsesslar yo‘k deb biluvchilar terminning o‘z tabiatiga bog‘laydilar, ya’ni ishora bo‘lgan termin atovchi va ataluvchisiga ko‘ra bir ma’nolidir, shuning uchun unda hech qanday polisemiya va sinonimiyaning bo‘lishi mumkin emas, degan fikrni bildirishadi. N.Tolikina shunday yozadi: «terminologik sistema shunday ishoraviy sistemadirki, uning aloqasi va va mazmuni bir fan doirasi bilan zich bog‘langan, chegaralangan. Ishona – so‘z

terminologik ma'noda qo'llanganda umumtilga xos ma'nosini yo'qotadi. Ya'ni bir terminologik sistemada so'z termin ma'nosida ham, umumtilga xom ma'noda ham ishlatilmaydi. Termin sifatida qyallangan so'zda terminologik ma'no ham ishlatilmaydi. Termin sifatida qo'llangan so'zda terminologik ma'no ham, umumtilga xos ma'no ham mavjud bo'lsa, u holda ishora o'zining eng asosiy funktsiyasi – farqlovchi funktsiyasini yo'qotadi. Shuning uchun termin polisemiya, sinonimiya, antonimiya va omonimiyadan mahrumdir».

P.Danilenko va boshqa olimlar esa terminlar ham adabiy tilning leksik birliklari sanalar ekan, unda ham oddiy so'zlarda bo'lgan leksik semantik protsesslar mavjud bo'ladi, lekin ulardag'i bu xususiyat termining bir butun terminlik xususiyatini yo'qota olmaydi, deb yozishadi.

Ko'rinaridiki, bu ikkala fikr bir-biriga ziddir. Terminda bunday leksik-semantik protsesslarni inkor etuvchilar terminning sof terminologik ma'nosidan kelib chiqib bu fikrni aytadilar. Aslida termin sanalgan leksik birlik har qanday polisemiya, sinonimiya, omonimiyadan mahrum b o'lishi kerak. Ya'ni terminga qo'yilgan talab shunday. Agar biror fan terminlarini logik nuqtayi nazaridan terminologik lug'atlar asosida tekshirsak, bu aytilgan fikrlar t o'gridir. Ammo bir butun terminologik sisemani funktsionallik nuqtayi nazaridan (qo'llanish xususiyatlaridan kelib chiqib) tekshirsak, bu fikrlar o'zini to'liq oqlamaydi.

Terminlar polisemiyasi. Polisemiya til birligining ko'p ma'noli hodisasidir. terminga qo'yilgan talablardan biri uning bir ma'noli bo'lishidir. Ammo har bir fan mutaxassilari terminologiya haqida fikr yuritishganda terminlarni bir ma'noda qo'llash kerakligi, xilma-xillikka yo'l qo'yilayotganligi, uni tartibga solish lozimligi to'g'risida ko'p gapiradilar. Terminlarni bir ma'noda qo'llash, polisemiyaga yo'l qo'ymaslik kerakligi uqtiriladi. Bularidan ma'lum bo'ladiki, terminlar ham oddiy so'zlarga xos bo'lgan leksik-semantik protsesslardan holi emas.

terminning qat'iy leksik-semantik chegarasi polisemianing barcha ko'rinishlarini qabul qilavermaydi. Ularning o'ziga xos belgilari mavjud. terminologiyada ma'no taraqqiyoti metaforik ko'chirish orqali hosil qilinmaydi. Ya'ni

bir termin anglatgan shakl, belgi, harakat yoki mazmun orqali boshqa terminni atash xususiyati yo‘q. Balki terminning o‘zi leksik birlik zaminidan hosil qilinishi mumkin. uning keyingi terminologik ma’no taraqqiyoti metaforaga asoslanmaydi. Masalan, yoy, maydon. tekislik, tengsizlik, burchak, ildiz kabi matematik terminlar metafora asosida ma’no ko‘chirish orqali adabiy til zaminidan hosil qilingan. Tilshunoslikdagi bo‘g‘in, gap, ega, aniqlovchi, to‘ldiriuvchi kabi terminlar ham oddiy leksik birlikdan terminologik leksikaga o‘xhashlik asosida ko‘chirilgan.

Terminologiyadagi polisemiya metonimiya va sinekdoxaga asoslanadi. Bunda bir predmet, hodisani anglatuvchi termin shunga bog‘liq bo‘lgan boshqa narsa va hodisaga ko‘chiriladi. masalan, frazeologiya termini bir o‘rinda iboralar yig‘indisi, majmuasi ma’nosida, ikkinchi bir o‘rinda ularni o‘rganuvchi tilshunoslikning bir sohasi, fan o‘rnida ishlatilishi mumkin. Yana leksika termini bir o‘rinda lug‘at tarkibi ma’nosida, ikkinchi bir o‘rinda so‘z ma’nosida, uchinchi bir o‘rinda tilshunoslikning bir sohasi ma’nosida ishlatiladi.

Ko‘pchilik tadqiqotchilar terminning tabiatini o‘rganishganda termin uchun kontekst bo‘lishi shart emas, deb uqtirishadi. Termin kontekstda ham, kontekstdan tashqarida ham o‘zining bir ma’nolilik xususiyatini saqlaydi, deb ta’kidlashadi. Bu bir tomondan to‘g‘ri, lekin yuqoridagi terminlarning o‘ziyoq ayrim terminlarning qanday ma’no anglatishi kontestda reallanishini ko‘rsatadi.

Terminlar omonimiysi. terminlardagi omonim holat bilan oddiy so‘zlarning omonim belgilarini bir-biriga qiyoslasak, ular o‘rtasida o‘ziga xos farqlar borligi ko‘zga tashalandi. Ma’lumki, terminlarning bir qismi adabiy tilga xos bo‘lgan so‘zlarning ma’no ko‘chishidan hosil qilingan. Ya’ni oddiy so‘z terminologik ma’noga ega bo‘ladi. Terminnin ham, oddiy so‘zni ham umuman leksik birlik deb hisoblaydigan bo‘lsak, terminlarda uch xil omonim holatini aniqlash mumkin. Terminlardagi omonimning bir ko‘rinishi termin bilan oddiy so‘z o‘rtasida sodir bo‘ladi. U mumadabiy tilga xos bo‘lgan so‘zlar terminologik ma’noga ega bo‘lganda ular o‘rtasidagi «polisemiya bir-biridan shuncha uzoqlashib ketadiki, natijada omonimiya yuzaga keladi», - deb yozadi A.Reformatskiy. demak, terminlar omonimiyasining bir ko‘rinishi polisemiyaga

asoslanadi. Hosil qilinishi garchi polisemiyaga asoslansa-da, lekin terminologik ma’noning to‘liq shakllanishi va qat’iy normativ holatga kelishi termin bilan so‘z o‘rtasida omonim paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Masalan, ildiz, burchak matematik terminlari daraxt ildizi, uyning burchagi kabilardagi oddiy so‘z ildiz, burchak bilan omonimdir.

Turli terminologik sistemadagi omonimlar so‘z yasalish va sinonimik munosabatlari bilan ajralib turadi. Terminlar omonimiysi bir fan doirasida bo‘lmasligi kerak. Bunga terminologik sistema yo‘l qo‘ymaydi. Chunki termin fan mutaxassislari tomonidan tanlanadi va ishlatiladi. Unday holatda boshqa termin olinadi.

Terminologik dubletlar. Tilshunoslikda sinonim, dublet, variant hodisalari etarli ishlangan emas. Ularning bir-biriga o‘xhash va farqlash belgilari hamda shu hodisalarning o‘ziga xos belgilarini ta’riflashda bir xillik yo‘q. Masalan, qanday so‘zlarni sinonim sanash mumkin, degan so‘roqqa har xil javob olish mumkin. Bir guruh olimlar «ma’nolari yaqin bo‘lgan» so‘zlarni sinonim sanasalar, ikkinchi bir guruh olimlar «bir tushuncha» anglatgan so‘zlarni sinonim sanaydilar, uchinchi guruh olimlar «bir xil ma’no anglatgan» so‘zlarni sinonimlar doirasiga kiritadilar. Biz sinonimlar bahsida o‘zbek tilshunosi A.Xojiev fikriga qo‘shilamiz. umumiy birlashtiruvchi ma’nosiga ko‘ra bir xil ma’no anglatgan, ammo ma’no ottenkasiga, stilistik bo‘yog‘iga hamda nutqiy qo‘llanishiga ko‘ra ajralib turadigan birliklarni sinonim sanaymiz. Oddiy leksik birlik sanalgan so‘zlar shu kabi belgilari bilan ajralib turadi. Terminologik leksikani shu nuqtayi nazardan tekshirsak, ular stilistik bo‘yoq, nutqiy qyallanish va ma’no ottenkasiga ko‘ra ajralib turmasligi ma’lum bo‘ladi, ya’ni shu maqsadlar uchun biri o‘rnida ikkinchisi ishlatilmaydi. Shuning uchun biz ularni terminologik dubletlar deb atadik. Terminologiyaga bag‘ishlangan ba’zi ishlarda bu hodisa sinonim, dublet yoki farqli qo‘llanmay, bir o‘rinda sinonim, ikkinchi o‘rinda dublet deb qo‘llanadi.

Terminlarning qo‘llanishini ilmiy adabiyotlar tilida ishlatilayotgan real holatdan kelib chiqib analiz qilsak termin ham oddiy leksik birliklar kabi dublet

hodisasiga yo‘l qo‘yishi, bir ilmiy tushunchani atash uchun ikki yoki undan ortiq terminlar ishlatilayotgani ma’lum bo‘ladi. Bu asosan, internatsional termin va o‘z til zaminida kal’kalash asosida yasalgan termin doirasida uchraydi. Bu hodisani har bir rivojlangan tilning terminologik sistemalarida uchratish mumkin va buni salbiy hodisa deb hisoblash, bizningcha, xatodir. Aksincha, terminlarning dubletga yo‘l qo‘yishi uning milliyligini belgilaydi deb tushunmoq kerak. Ya’ni shu faniy tushuncha shu millatga, shu tilda gapiruvchi kishilarga ma’lumdir degan xulosa chiqadi. Masalan, tilshunoslik termini sanalgan affiks o‘rnida qo‘srimcha termini ham ishlatiladi. Shuningdek, prefiks va suffiks terminlari bilan birga old qo‘srimcha va so‘ng qo‘srimcha terminlari ham ishlatiladi. Bu holatning ma’lum sabablari bor, albatta.

Hozirgi kun nuqtayi nazaridan terminologik sistemadan butunlay chiqib ketgan tilshunoslik terminlari anchaginadir. Masalan, sifatli uyushma-sifatlovchi-sifatlanmishli birikma, ergash muchalar-ikkinchi darajali bo‘laklar, ilgak-bog‘lovchi v.b. Bular albatta hozirgi kun nuqtayi nazaridan terminologik dublet bo‘la olmaydi. Ammo hozir ham ma’lum bir formani olmagan variant holida qo‘llanuvchi terminlar oz emas. Masalan, ayiruvchi bog‘lovchilar – ayiruv bog‘lovchilar, aniqlik mayli-ijro mayli, daraja-nisbatan, majhul fel-majhul nisbat formasi v.b.

Ko‘rinadiki, termin anglatgan tushuncha haqida bilimlarning oshishi, masalaning barcha tomonlari mukammal o‘rganilishi shu tushunchani atagan terminga ham tanqidiy munosabat bilidirishni talab qiladi. Natijada termin fonetik, morfologik yoki leksik dubletga yo‘l qo‘yadi. Lekin bundan barcha terminlar shu yo‘lni bosib o‘tadi, barcha terminlarning dubleti mavjuddir, degan noto‘g‘ri xulosa ham chiqarmaslik kerak.

Terminlar antonimiysi. Ilmiy bayonda narsa va hodisalarning tub mohiyati ilmiy asosda o‘rganiladi. Unda narsa va hodisalarni bir-biriga qarama-qarshi qayish kuchli bo‘ladi. Chunki biror narsa va hodisa o‘rganilganda uning xususiyatlari boshqa narsa va hodisaga nisbatan albatta binar oppozitsiyaga qo‘yiladi. Shu orqali perdmetning ajralib turuvchi belgi-

xususiyatlari aniqlanadi. Masalan, tilshunoslikdagi bir tarkibli gaplar – ikki sostavli gaplar, to‘liqsiz gap-to‘liq gap, sodda gap-q o‘shma gap, teng bog‘lanish-ergash bog‘lanish, o‘z qatlam- o‘zlashgan qatlam, monesemantizm-polisemantizm, chegaralangan qatlam-chegaralanmagan qatlam, unli tovush-undosh tovush, portlovchi tovush-sirg‘aluvchi tovush terminlarining ilmiy bayoni ongda bir-biriga qarama-qarshi qo‘yiladi. Shu asosda ularning ilmiy tushunchasi bayon qilinadi. demak, fikrda, ongda qarama-qarshilik mavjud. Tilda so‘zning anglatgan ma’nolari qarama-qarshi bo‘lishi mumkin. Bu jihatdan yuqorida keltirilgan terminlar keng ma’noda bir-biriga antonim bo‘ladi. Chunki so‘zning anglatgan ma’no tushunchasida bir-biriga nisbatan qarama-qarshi qo‘yish bor. Oddiy so‘zlardagi qarama-qarshilik ma’noda bo‘lib, biri ishlatilganda ikkinchisi ham ongimizda hosil bo‘ladi. Masalan, biror narsaning balandlik, chiroylilik, to‘g‘rilik belgilari aniqlanganda albatta ularning qarama-qarshi tomonlari ongimizda tiklanadi. Ularning shu belgi-xususiyatlarini boshqa narsaning shu kabi belgi-xususiyatlarini boshqa narsaning shu kabi belgi-xususiyatlariga qiyoslash, solishtirish asosida aniqlaymiz.

So‘zga xos antonimlarning leksik va affiksal turlari terminlarga ham tegishlidir. Masalan, leksik termin antonimlar, surat-maxraj, plyus-minus, ko‘paytiruv-bo‘luv v.b.

Ilmiy adabiyotlar tilida leksik antonimlarga qaraganda so‘z birikmalarining antonimi ko‘proqdir. Ularning har ikkala komponenti o‘z qatlamdan yoki bir komponenti o‘z qatlamidan iborat bo‘lishi mumkin: 1) har ikkala komponenti o‘z qatlamidan iborat b o‘lgan birikmali terminlar: yuqori bosim-quyi bosim (fizika termini), uzoqlashuvchi ketma-ketlik-yaqinlashuvchi ketma-ketlik (matematik), qattiq suv-yumshoq suv (ximiya termini) va b. 2) bir komponenti internatsional bo‘lgan birikmali termin antonimlar: musbat valentlik-manfiy valentlik, aktivlovchi agentlar-passivlovchi agentlar, ichki energiya-tashqi energiya (ximiya terminlari), mitoz bo‘linishi-amitoz bo‘linishi (botanika termini) v.b.

Affiksal antonimiya oddiy so‘zlarga qaraganda terminlar doirasida unumliroqdir. Vositali boshqaruv-vositasiz boshqaruv, bo‘lishli forma-

bo‘lishsiz forma, o‘timli fellar- o‘timsiz fe’llar (tilshunoslik terminlari, umurtqali hayvonlar-umurtqasiz hayvonlar) (zoologiya termini), mevali o‘simpliklar-mevasiz o‘simpliklar (botanika termini) va b.

Termin birinchi tanlashida, ma’lum bir ilmiy tushunchani atashida har qanday polisemiya, omonimiya, sinonimiya, antonimiyadan holi bo‘lishga harakat qiladi. Ammo termin nutqda ishlatilishi natijasida oddiy so‘zlar kabi ana shu protsesslarga yo‘l qo‘yishi ma’lum bo‘ladi.

Ilmiy-nazariy adabiyotlarda termin ekspressiv-emotsionallikdan holidir, deb uqtiriladi. Haqiqatan, termin ilmiy matndan chiqarilib, yakka holda qaralsa, uning nominativ ma’no anglatishi, okkozional ma’noga ega emasligi ma’lum bo‘ladi. Shu jihatdan terminda ekspressiv-emotsionallik yo‘q. Lekin terminning funktional nutq turlarida qo‘llanishidan kelib chiqib masalaga yondashsak, bu aytilgan fikrlar o‘zini oqlamaydi.

Aslida ekspressiv-emotsionallik so‘zning anglatgan ma’nosiga emas, balki nutq turiga bog‘liqdir. Agarda so‘zning ma’nosiga bog‘liq bo‘lganda edi, ilmiy nutqda ishlatilgan oddiy leksik birliklar ekspressiv-emotsionallik uchun xizmat qilishi kerak edi. Ekspressiv-emotsionallik hodisasini nutq turlaridan izlash lozim. Funktsional stillarning ba’zilari ekspressiv-emotsionallikka yo‘l qo‘ysa, ayrimlari bunga yo‘l qo‘ymaydi. Jumladan, ilmiy va rasmiy hujjat nutqlari ekspressiv-emotsionallikdan holidir. Chunki bu nutq turlarining talabi o‘zgacha. Aksincha so‘zlashuv va badiiy nutqlar esa ekspressiv-emotsionallidir. badiiy nutqda ishlatilgan har bir obrazlilik uchun xizmat qiladi.

Terminlarning shu ma’noda, ya’ni komik effekt hosil kilish maqsadida qo‘llanish ko‘proq uchraydi. Qo‘lingizdagи ushbu to‘plam kulgi orbitasida charx urib parvoz qilayotgan, «tabassum» ustaxonasi»da qo‘li qadoq bo‘lgan ko‘p sonli tabassum mualliflarining navbatdagi guruxli uchishlaridan biridir.

Badiiy adabiyot tilida terminlarning o‘ziga xos yana bir qo‘llanishi borki, uni shartli ravishda «nutqiy taqlid etikasi» deb atash mumkin. Bunda bir butun badiiy asar, ko‘proq hajviy hikoya funktional stil janrlaridan biriga asoslanib

yoziladi. Masalan, ilmiy stilning taqriz, ilmiy ko'rsatma, rasmiy-hujjat stilining avtobiografiya, publitsistik stilning reportaj kabi janrlariga asoslanadi.

Hajviyaning funktsional stil janrlariga asoslanishi kulgili holatni ro'yobga chiqaradi. Bunda bevosita yozuvchining mahorati birinchi rejada turadi. Bunda yozuvchi ilmiy taqrizchi, reporterchi, avtobiografiya yozgan kishi obraziga kiradi. San'atkor nutqning shu janrlariga xoslangan terminlarni va umumiste'moldagi so'zlarni shunday obrazli qo'llaydiki, bu bilan ekspressiv-emotsionallik kuchli namoyon bo'ladi.

2.2. Terminlarning so'z tarkumlarga munosabati

Termin sanalgan maxsus leksik birliklar qaysi so'z tarkumlariga oid bo'ladi degan masala ham tilshunoslikda hal etilmagan murakkab masalalardan biridir. Ko'pchilik terminshunoslari termin faqat ot tarkumiga oid bo'lgan fikrni bildirishadi. Ammo keyingi yillarda chiqqan ilmiy adabiyotlarda termin sifat, fe'l va ravish tarkumlaridan ham ifodalanishi mumkin degan fikrlar paydo bo'la boshladi. Bu fikrni birinchilardan bo'lib asoslangan rus tilshunosi P.Danilenkodir. P.Danilenkodirning fikricha, termin sanalgan maxsus leksik birlikning ikki muhim belgisini farqlash kerak. Birinchisi-terminning fiksatsiya doirasi, ikkinchisi-funktsionallik doirasi.

Fiksatsiya doirasida muallif terminning tushuncha anglatishini, definitsaga ega bo'lishini, nominativ funksiya bajarilishini, ham da shu belgilarga ega bo'lgan maxsus leksik birliklarning leksikografik janrlarda berilishini tushunadi. Bu yo'nalishda termin asosan kontestdan chiqarilib, yakka holda uning yuqoridagi belgi-xususiyatlari o'rganiladi. Termin yakka holda qaralganda belgi, harakatni abstrakt perdmetlik ma'nosida ifodalaydi, shuning uchun terminologik lug'atlarda berilgan maxsus leksik birlik so'z yoki birikma holida ot tarkumiga mansub bo'lib qoladi deb uqtiradi.

Funktsionallik deganda terminlarni ilmiy adabiyotlar tilida qo'llanishi, uning adabiy til birliklari bilan bog'liq holda ishlatilishi tushuniladi. Adabiy til leksikasining butun tabiatini lug'atlar asosida o'rganilmaganidek, terminlarning xususiyatlarini ham leksikografik janr asosida o'rganib bo'lmaydi. Uning bir butun tabiatini ilmiy adabiyotlar tilidan, adabiy til birliklari qamrovi doirasida qo'llanish, ishlatilish doirasidan, kontekstdagi tabiatidan kelib chiqib o'rganish kerak, degan fikr ilgari suriladi.

Terminlar ilmiy adabiyotlar tilida ishlatilganda, uning adabiy til qonun-qoidalariga bo'y sunishi ma'lum bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda terminlarning o'z grammatikasi yo'q. O'z til zaminida yasalgan hamda o'zlashtirilgan har qanday termin tilining yaxlit grammatikasiga amal qiladi. O'zlarini alohida morfologik yoki sintaktik sistemani hosil qilmaydi. Shunday ekan, otdan boshqa so'z turkumlari ham termin bo'lib qo'llana olishi mumkin.

Termin sanalgan maxsus leksik birlikning tub mohiyatida haqiqatan ham har qanday belgi, harakat, xolatni abstrakt predmetlik ma'nosi sifatida ko'rsata olish xususiyati bor. Buni hech kim inkor etmaydi, ammo maxsus leksik birlik sanalgan termin doim peremetlik ma'nosini saqlab, belgi, harakat, xolat ma'nosini anglatmaydi deyishga asosimiz yo'q. Masalan, quyidagi turli fanlarga oid oterminlarining qo'llanishiga e'tibor beraylik. Metall buyumlarni kavshar deb ataluvchi oraliq metall bilan ajralmaydigan qilib biriktirish protsessi kavsharlash deb ataladi.

Terminning stilistik bo'yog'i. Ilmiy-nazariy adabiyotlarda termin ekspressiv-emotsionallikdan holidir, deb uqtiriladi. Haqiqatan, termin ilmiy matndan chiqarilib, yakka holda qaralsa, uning nominativ ma'no anglatishi, okkozional ma'noga ega emasligi ma'lum bo'ladi. Shu jihatdan terminda ekspressiv-emotsionallik yo'q. Lekin terminning funktsional nutq turlarida qo'llanishidan kelib chiqib masalaga yondashsak, bu aytilgan fikrlar o'zini oqlamaydi.

Aslida ekspressiv-emotsionallik so'zning anglatgan ma'nosiga emas, balki nutq turiga bog'liqdir. Agarda so'zning ma'nosiga bog'liq bo'lganda edi, ilmiy nutqda ishlatilgan oddiy leksik birliklar ekspressiv-emotsionallik uchun xizmat

qilishi kerak edi. Ekspressiv-emotsionallik hodisasini nutq turlaridan izlash lozim. Funktsional stillarning ba’zilari ekspressiv-emotsionallikka yo‘l qo‘ysa, ayrimlari bunga yo‘l qo‘ymaydi. Jumladan, ilmiy va rasmiy hujjat nutqlari ekspressiv-emotsionallikdan holidir. Chunki bu nutq turlarining talabi o‘zgacha. Aksincha so‘zlashuv va badiiy nutqlar esa ekspressiv-emotsionallidir. Badiiy nutqda ishlatilgan har bir obrazlilik uchun xizmat qiladi.

Terminlarning shu ma’noda, ya’ni komik effekt hosil kilish maqsadida qo‘llanish ko‘proq uchraydi. Q o‘lingizdagi ushbu to‘plam kulgi orbitasida charx urib parvoz qilayotgan, «Tabassum» ustaxonasi»da qo‘li qadoq bo‘lgan ko‘p sonli tabassum mualliflarining navbatdagi guruxli uchishlaridan biridir.

Badiiy adabiyot tilida terminlarning o‘ziga xos yana bir qo‘llanishi borki, uni shartli ravishda «nutqiy taqlid etikasi» deb atash mumkin. Bunda bir butun badiiy asar, ko‘proq hajviy hikoya funktional stil janrlaridan biriga asoslanib yoziladi. Masalan, ilmiy stilning taqriz, ilmiy ko‘rsatma, rasmiy-hujjat stilining avtobiografiya, publitsistik stilning reportaj kabi janrlariga asoslanadi.

Hajviyaning funktional stil janrlariga asoslanishi kulgili holatni ro‘yobga chiqaradi. Bunda bevosita yozuvchining mahorati birinchi rejada turadi. Bunda yozuvchi ilmiy taqrizchi, reporterchi, avtobiografiya yozgan kishi obraziga kiradi. San’atkor nutqning shu janrlariga xoslangan terminlarni va umumiste’moldagi so‘zlarni shunday obrazli qo‘llaydiki, bu bilan ekspressiv-emotsionallik kuchli namoyon bo‘ladi. Ilmiy taqrizga misol: Xotinboz chumchuq. Bir jurnalda «Xotinboz chumchuq» degan hikoya bosildi...

Hay, bu ham o‘tdi. «Xotinboz chumchuq» odamlarning esidan ham chiqib ketdi. Ammo oradan bir oy o‘tar- o‘tmas, gazetada «Xotinboz chumchuq» sarlavhasi ostida maqola chiqdi. Gazeta qo‘lma-qo‘l bo‘lib ketdi. O‘qigan ham o‘kidi, o‘kimagan ham o‘qidi. Maqola shunday boshlanar edi: «Yozuvchi Kenja Alimatov o‘zining «Xotinboz chumchuq» asari orqali oramizdagi xotinbozlarini satira o‘ti bilan quydirishga uringan va uni muvaffaqiyatli hal qila olgan.

Terminda, umuman, ekspressiv-emotsionallik yo‘q deyish xato fikrdir. Termin ilmiy nutqda ishlatilganda ekspressiv-emotsionallikdan mahrum bo‘lishi

mumkin. Badiiy nutqda esa aksinchadir. Bu bevosita nutq talabiga bog‘liq masaladir. Demak, ekspressiv-emotsionallik va neytrallik masalalarini so‘z yoki terminning anglatgan ma’nosidan emas, balki birinchi navbatda nutq turidan izlash kerak. Shuning uchun funktsionallik masalasi stilistikada markaziy o‘rin tutadi. Leksikani funktsionallik nuqtayi nazardan tekshirish bu haqdagi bilimlarimizni boyitib, uning yangi qirralarini o‘rganishga imkon beradi.

UMUMIY XULOSALAR

Hozirgi davr tilshunosligida funktsional uslublarni o‘rganish uning eng muhim tadqikot obyektlaridan biriga aylanmoqda. Chunki tilning voqelikka, reallikka aylanishi, qo‘llanilishi jarayoni faqat nutq shakllarida-uslublarda amalga oshadi. Faqat ushbu jarayondagina til birliklarining haqiqiy qiyofasi, ahamiyati, inson ehtiyojlariga xizmat qilish ta’minoti sodir byaladi. Bu tilning funktsional, tarafi hisoblanib, uning o‘z vazifasini ado etishi, jamiyat talablariga ixtisoslanish, ixchamlashish holati sodir bo‘ladi. Shu ma’noda til birliklarining vazifaviy qiyofasini tadqiq qilish tilshunoslik uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi ilmiy-texnikaviy taraqqiyot davrida ilmiy uslubni funktsional uslublarning biri sifatida o‘rganish, til birliklarining mazkur uslubdagi funktsional uslubiy q o‘llanishinin kuzatish, ularning bu uslubdagi semantik-stilistik o‘ziga xosligini, tanlanishini o‘rganish tilshunoslik uchun katta material berishi, bu uslubning uslubiy xususiyatlarini ochib berishi shubxasizdir.

Ushbu maqsadda biz o‘z malakaviy ishimizda o‘zbek adabiy tili funktsional uslublaridan ilmiy uslubning leksik-semantik tarkibini o‘rganishni ishning asosiy mavzusi qilib oldik.

Tekshirishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, ilmiy ulubning leksik qatlami nafaqat o‘zigagina xos elementlarning yig‘idisidan, balki umumtilga xos bo‘lgan elementlar va funktsional elementlarning ko‘p nuqtai nazardan aralash qyallanilishi evaziga yuzaga keladigan nutqiy sistemaga ega ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Ilmiy uslub leksikasida ham birinchi o‘rinda umumilmiy adabiy til leksikasi turadi. Bu leksik qatlam uslublar doirasida chegaralanmagan holatga ega. Chunki undagi umumiste’moldagi leksik qatlam ushbu sohada alokaning to‘g‘ri amalga oshishi, til elementlarining kommunikativ maqsadda tipiklashishi, ilmiy uslubda ifodalanishi zarur bo‘lgan ilmiy tushunchalar va mantiq hukmi bilan ifodalanadigan fikrlar murakkabligini voqelikka aylantirishga xizmat qiladigan til vositalarining uyushishi, uyg‘unlashishi uchun zarur b o‘lgan leksik qatlamdir. Bu

leksik qatlamsiz ilmiy stil o‘z peremetini, tushuntirilayotgan obyektini til vositasida bayon qila olmaydi. Demak, bu qatlam ilmiy uslub uchun eng zaruriy qatlamdir.

Ikkinchi qatlam ilmiy uslub uchun zarur bo‘lgan, umumxalq tilida ham mavjud bo‘lib, ko‘pchilik tushunadigan, xalqning savodli qatlami uchun tanish bo‘lgan og‘zaki nutqda ham, kitobiy uslublarda ham bab-baravar qyallana oladigan umumilmiy leksik qatlamdir. Bu leksik qatlam ko‘p yillar davomida tilimizda faol qo‘llanganligi sababli ham umumxalq uchun tushunarli bo‘lgan ilmiy qatlamdir. Ilmiy uslub bu kabi til birliklarisiz o‘z vazifasini bajarishi mumkin emas. Shu sababli ham mazkur leksik qatlam ilmiy uslub uchun eng zarur va aloqa akti uchun kerak bo‘lgan qatlamdir. Bu qatlam uchun xos bo‘lgan misollar malakaviy ishning zarur qismlarida anchagina keltirilgan.

Uchinchi tip leksik qatlam borki, u ilmiy uslub uchun eng xos, ixtisoslashgan uning uslubiy vazifasini anik va talab qilingan darajada amalga oshiriladigan leksik qatlamdir. U terminologik leksika bo‘lib, ilmiy aloqa uchun nihoyatda zarur, umumxalqqa tushunarsiz, faqat mutaxassilar uchungina tushunarli bo‘lib, ularga mo‘ljallangan, ilmiy uslubning har bir sohasida tubdan farqlanadigan leksik qatlamdir.

Ilmiy uslubning eng bosh ekstralengvistik asoslaridan biri-tafakkur shakli, mazmun, fanning turi kabi omillar ilmiy uslubda so‘z tanlanishini, terminlarning qat’iy aniq ma’nolarda qo‘llanishini, fanning xarakteriga mos holda faqat shu sohada qo‘llaniladigan terminlarni sinchiklab ishlatishni talab qiladi. Ilmiy uslubning bu talablari terminlar qo‘llanishida aniq ko‘zga tashlanadi. Bu terminlar faqat mutaxassis kishilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, mutaxassis bo‘lmagan kishilarga tushunarsiz bo‘ladi. Malakaviy ishda shunga o‘xshash terminlar ham tahlil qilingan.

Malakaviy ishda terminlarda no o‘rin hodisa hisoblangan sinonimiya hodisasi, yo‘l qayayish mumkin bo‘lgan omonimiya va antonimiya hodisalari keng tahlil qilinadi va ular bo‘yicha xulosalar chiqariladi.

Umuman, ishda ilmiy uslubning leksik-semantik xususiyatlari keng tahlil qilinib kerakli xulosalarga kelinadi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili ilmiy stilining problemasini o‘rganish quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon berdi.

1. Stolistikaga doir ilmiy-nazariy adabiyotlarda til birlikliklarining: a) mantiqiylik/emotsionallik, b) yozma (kitobiy) og‘zaki (so‘zlashuv), v) obrazlilik/obrazsizlik kabi xodiazlarga ajratib o‘rganilishi, bu hodisalarning stilimtikaning fundamental stilistin oppozitsiyalari ekanlngini ko‘rsatdi. Nazariy adabiyotlarda bu terminlar turlicha nomlanib, turlicha izohlanayotgan bo‘lsa-da, lekin shu stolistik oppozitsyalar asosida barcha adabiy tillarning stolistik resurslarini o‘rganish mumkin. Bu esa stolistik oppozitsiyalarning universalligini ham ko‘rsatadi. Stolistika obyektiga til birliklarining akspressiv- emotsionallik va funktional stillarga xoslashni belgilarini o‘rganish kiradi. Shunday ekan, konkret tadqiqotda uning stolistik oppozitsiyalarini aniqlab olish muhimdir. Ilmiy nutq uchun stolistik oipozitsiyalardan: a) mantiqiylik, b) yozma (ki-tobiylilik), v) obrazsizlik xos bo‘lib, uning uziga xos belgilari shu stolistik oppozitsiyalar asosida izohlanishi kerak. Ilmiy nutqning mantiqiylik, obrazsizlik xususiyatlari badiiy nutqning emotsionallik va obrazlilik belgilariga, ilmiy nutqda ishlatilgan kitobiy til birliklari so‘zlashuv nutqiga xoslangan til birliklariga qiyoslanishi kerak. Shundagina ilmiy nutqning o‘ziga xos belgilari ma’lum bo‘ladi.

2. Ilmiy nutq ak V.V.Vinogradov ta’kidlaganidek, xabar anglatish funktsiyasidan kelib chiqib, adabiy til birliklarini alohida guruhlaydi, ya’ni tanlab, saralab oladi. Til birliklarining ilmiy nutq talabiga mos ravishda tanlanishi, saralanishi leksik, morfologik va sintaktik birliklarning qo‘llanishida ko‘rinadi. Qo‘llanish jihatdan ilmiy nutqda ishlatilgai til birliklari bilan boshqa funktional nutq turlarida ishlatilgan til birliklari o‘rtasida lingvistik differentsiyanish yuzaga keladi.

3. Tekshirishlarimiz ilmiy adabiyotlar turli fanlarga oid bo‘lishidan qat’iy nazar, ularning til qurilishlarida bir umumiylilik, yaxlitlik borligini ko‘rsatdi. Tilda alohida fizika tili, matematika tili kabi fan tillari yo‘q. Har bir fan adabiyotlari o‘z

terminlari bilan farq qilishi mumknn. Lekin bu til qurilishiga ko‘ra farqlanadi degan so‘z emas. Chunki barcha fanlarga oid adabiyotlar ilmiy ipformatsiyani mantiqiy hukm yuritish orqali bayon etadi. Bayonda obrazlilikka, tasviriylikka yo‘l qo‘ymaydi. Nutq monologik xarakterda tuzilib, faqat adabii sanalgan til birliklari ishlatiladi. Ana shu stil sathlari sanalgan ekstraliigvistik belgilarning barcha fanlarga oid adabiyotlarda bir xilligi tilda yagona bir funksional ilmiy nutq turinnng mavjudliginn, uning monolitligini ko‘rsatadi.

4. Tekshirishlarimiz ekspressiv-emotsionallik tushunchasiga ham bir qadar aniqlik kiritdi. Ko‘pchilik tadqiqotchilar ekspressiv-emotsionallik haqida gapishtganda biror so‘z yoki affiksning qaysi nutq turida, qanday maqsadda qo‘llanayotganligini hisobga olmagan holda uning ekspressiv-emotsional ma’no anglatishi to‘g‘risida gapishtadi. Biznpngcha, masalaga funksionallik nuqtai nazaridan yondashish kerak. Ekspressiv-emotsionallikning manbai so‘zning ma’nosida emas, balki nutq turidadir. Ya’ni ilmiy nutq bilan stilistik oppozitsiyada turgan so‘zlashuv va badiiy nutqlardadir. Shu nutq turlarida qo‘llangan har qanday til birligi ekspressiv-emotsionallikni yuzaga chiqara oladi.. Ilmiy nutqda bu xususiyat yo‘q. Demak, eksprssiv-emotsionallik haqida gapirganda nutq turlari, ularga qo‘yilgan talab xususiyatlarini hisobga olgan holda masalaga yondashish lozimdir.

5. Ilmiy nutqni tadqiq etishda adabiy til grammatika asarlarining ham mukammal bo‘lishini ta’minlashi sezildi. Grammatika kitoblarining manba sifatida asosan badiiy nutqlardan misol olishi, ilmiy, publitsistik va rasmiy ish qog‘ozlari nutqiga kam murojaat qilishi ayrim til hodisalarining to‘liq yoritilmasligiga olib kelgan. Masalan, nلمiy nutqda -lar affiksa abstrakt otlarga ham qo‘sila oladi: hodisalar masalalar; terminini shakllantira oladi: bir pallalilar, sudraluvchi lar: nimta, chimdim kabi so‘zlashuv nutqiga xos numerativlar berilgan holda amper, volt, tesla kabi ilmiy nutqqa xos numerativlar grammatikada berilmaydi; to‘grisida, xaqda, haqida ko‘makchilari berilgan holda, shularning to‘g‘risidagi, haqidagi kabi ilmiy nutqqa xos variantlari berilmaydi. Bularni yana davom ettiraverish mumkin. Bulardan ma’lum bo‘ladiki, stilistik tadqiqotlar lingvistik tadqiqotlarni to‘ldiradi,

uning mukammal bo‘lishini ta’minlaydi. Shuniig uchun biz o‘z tekshirishlarimizda grammatika asarlaridan chetda qolgan til faktlarini yoritishga ham ahamiyat berdik.

6. Tekshirishlarimiz xulosalarining natijasi sifatida shuni aytish mumkinki, hozirgi o‘zbek adabiy tili ilmiy stilining shakllanishi va taraqqiyotida, uning ekstralengvistik va lingvistik belgilarida rus tili ilmiy stilining samarali ta’siri katta bo‘gan.

7. Hozirgi o‘zbek adabiy tili ilmiy stilining shakllanish va taraqqiyoti haqida shuni aytish mumkin:

1920 yillardan boshlab klassik asarlar; maktab, texnikum, bilim yurtlari, institutlar uchun chiqarilgan darslik, qo‘llanma, programmalar rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilina boshlandi. Bular bir tomondan fanning rivojlanishiga sabab bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ularning o‘zbek tilida yozilishi adabiy til doirasida ilmiy stilning shakllanishi va taraqqiyotiga sabab bo‘ldi.

8. Rus tili ilmiy stilining ta’sirini o‘zbek tili ilmii stilining janr turlarida, kompozitsion qurilishida va stil sathlarida ham ko‘rish mumkin. To‘g‘risini aytganda, rus tili ilmiy stiliga xos monografiya, darslik, taqriz, referat, ilmiy maqola, programma kabi janrlarning o‘zbek tilida yuzaga kelishi aniq rus tilining ta’siridir. Inqilobdan avval bunday janrlar o‘zbek tilining ilmiy stilida yo‘q edi.

9. Rus tili ilmiy stilining ta’sirini yana stil sathlarida ham ko‘rish mumkin. Stil sathlari jihatidan barcha tillarning ilmiy stillari logik izchillik, aniqlikka asoslanadi. Fikr isbotlanadi bayonda ekspressiv-emotsionallikka yo‘l qo‘yilmaydi. Nutq monologik xarakterda tuziladi. Ana shu stil sathlari asosida til birliklari alohida guruhlanadi. Natijada barcha milliy tillarning ilmiy stillarida adabiy sanalgan birliklar ishlatilib, noadabiy sanalgan birliklar, so‘zlashuv nutqiga xos elementlar ishlatilmaydi. Internatsional terminlar va simvolik belgilar barcha tillarda bir xil idrok etilib, bir xil tushuniladi va bir xil ishlatiladi. Shuningdek, leksik takrorga yo‘l qo‘yadi. Takror ilmiy nutqning muhim belgilaridan biri sanaladi. Nafaqat leksik birliklar hatto affikslar ham takror qo‘llanadi. Agarda rus tili ilmiy stilida ana shunday xususiyatlar bo‘lmasa ediladi, o‘zbek tili ilmiy stilining xususiyatlari

haqida gapirish o‘rinsiz bo‘lar edi. Shu sababli A.N.Baskakov va V.Yu.Mixailchenkonng milliy tillarning ilmiy stillari rus tili ilmiy stilining ta’sirida yuzaga keldi, shuning uchun ularning stilistik belgilarida va terminologik fondlarida umumiylit bor degan fikrlari nihoyatda qimmatlidir.

10. Rus tili ilmiy stilining o‘zbek tili ilmiy stiliga bo‘lgan ta’sirini shartli ravishda: a) struktur ta’sir, b) funktsional ta’sirga ajratish mumkin. Struktur ta’sirda odatda tilda o‘zga til ta’sirida yuzaga kelgan fonema, morfema, so‘z va sintaktik konstruktsiyalar tushuniladi. Bular sof lingvistik hodisa bo‘lib, u ko‘zga yaqqol tashlanib turadi.

11. Leksikadagi struktur ta’sirga birinchn o‘rinda internatsional terminlar kiradi. Hozirgi kunda o‘zbekcha ilmiy adabiyotlar tilida ishlatilayotgan barcha internatsional terminlar ruscha ilmiy adabiyotlardan olingan. Bunday tayyor terminlarning olinishi, birinchidan, o‘zbek adabiy tili leksikasini terminologik leksika hisobiga boyitadi. Ikkinchidan, oddiy so‘zlarga xos bo‘lgan polisemiya, sinonimiya, omonimiya, antonimiyaning terminologiyada ham o‘ziga xos ko‘rinishini yuzaga keltirdi. Uchinchidan, internatsional terminlar bilan simvolik belgilarning bir xil ishlatilishi va tushunilishi o‘zbek tili ilmiy stilini boshqa tillarning ilmiy stiliga yaqinlashtirdi, umumiylitni yuzaga keltirdi. Shuning uchun V. N. Yartseva “Barcha tillarning ilmiy stillarida yaqinlik bor”, — deb ko‘rsatadi.

12. Bulardan tashqari, yana shuni ta’kidlash kerakki, o‘zbek tilinnng ichki manbalari orqali semantik, morfologik, sintaktik usullar bilan yasalgan minglab o‘zbekcha terminlarning yuzaga kelishida ham aslida rus tili ilmiy adabiyotlarida qo‘llanayotgan terminlar sabab bo‘lgan. Rus tilidagi terminlarning o‘zbek tiliga kalkalashtirilishi hatto kam mahsulli affiks sanalgan -ma, -gich, -kich, -qich, -sh, -ish, -lashtirshi affikslarining terminologiyada aktivlashishiga olib keldi. Eskidan ishlatilib kelinayotgan so‘zлarniig yangi ma’no anglatishlari ham rus tilining struktur ta’siri natijasidir.

13. Shuningdek, o‘zbek tili ilmiy nutqida umumilliy qatlamning yuzaga kelishida ham rus tili ilmiy stilining ta’sirini ko‘rish mumkin. Umummilliy qatlamning bir qismi rus tilidan tayyor olingan bo‘lsa (analiz, sintez, problema,

struktura, sistema, gipoteza v. b.), ayrimlari semantik kalkalashtirilgan: so‘z boshi, kirish, xulosa, bob, ilmiy tadqiqot v. b. Bu kabi so‘z va birikmalarining bir fan doirasi bilan chegaralanib qolmasligi, barcha ilmiy adabiyotlar tilida teng ishlatilishi rus tilining ta’siridir.

14. Biz funktsional ta’sir deganda rus tili ilmiy stilida qo‘llangan til birliklari qanday funktsiya bajarsa, o‘zbek tili ilmiy stilida qo‘llangan til birliklarining ham shunday funktsiya bajarishini tushunamiz. Funktsional ta’sir struktur ta’sirdek ko‘zga yaqqol tashlanib turmaydi. Bu adabiy tilning o‘z ichki funktsional taraqqiyotiga oiddir. Tilning ijtimoiy hayotdagi funktsiyasining kengayishi to‘g‘rirog‘i, ma’lum bir sotsial guruh (olimlar)ning ilmiy nutq orqali o‘zaro aloqa qilishi adabiy tilning leksik, morfologik, sintaktik birliklarining maxsus guruhlanishi (qo‘llanishi) ni talab kiladi. Bu til birliklarining ma’lum maqsad, vazifadagi qo‘llanshinda ko‘rinadi. Misol uchun rus tili ilmiy stilida ponashemu so‘zi qo‘llanmaganda edi, o‘zbek tili ilmiy stilida ham menimcha o‘rnida bizningcha formasi qo‘llanmagan bo‘lar edi.

15. Leksikadagi funktsional ta’sirni ilmiy nutqda qo‘llangan terminlar, umummilmiy so‘zlar va ilmiy nutqqa xoslangan oddiy leksik birliklarning ko‘p marta takror ko‘llanishida, sinonimiya hodisasining chegaralanishida, ularning ekspressiv-emotsionallik hodisaga yo‘l qo‘ymasligida, adabiy sanalgan leksik birliklarning ishlatilishida k o‘ramiz. Rus tili ilmiy stili leksikasida shunday xususiyatlarning bo‘lishi o‘zbek tili ilmiy stili leksikasida ham ana shunday xususiyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan.

16. Rus tili ilmiy stili bilan o‘zbek tili ilmiy stili o‘rtasidagi aloqadorlik sintaktik belgilarda ham ko‘rinadi. Masalan, har ikkala tilning ilmiy stillarida infinitiv va nominativ gaplar sarlavhalarda ishlatiladi; kiritma konstruktsiyalar snoskalarda xam beriladi; shaxsiz gap, shaxsi umumlashgan gap ko‘p ishlatiladi; bog‘langan qo‘shma gaplarda mazmun jihatdan bir sodda gap ikkinchi sodda gapni izohlash, qiyoslash uchun ishlatiladi; ergashgan qo‘shma gaplarning bosh gaplari ko‘pincha, ilmiy informatsiyani bayon etmaydi, bog‘lama vazifasida keladi: ko‘ramizki, ma’lumki, shunisi muhimki, ravshanki v. o.

17. Haqiqatan ham adabiy tilning nutq ko‘rinishlari funktsionallik nuqtayi nazardan o‘rganilganda adabiy tillarning taraqqiyoti qonunlari, rus tilnning milliy tillarga bo‘lgan samarali ta’siri obyektiv baxolanadi. Shu sababli hozirgi kunda stilistik tadqiqotlarda funktsional stillarni o‘rganish problemasiga katta ahamiyat berilmoqda. Bu esa kelajakda rus va o‘zbek tili chog‘ishtirma stilistikalarining, turkiy tillarning qiyosiy stilistikalarining yaratilishiga sabab bo‘ladi.

18. Demak, hozirgi o‘zbek adabiy o‘zbek tilining leksik, morfologik, sintaktik birliklari ilmiy nutq talabiga mos qo‘llanishi natijasida alohida bir nutqiy sistema hosil qilganki, bu nutqiy sistemaning o‘zining leksik morfologik va sintaktik birliklari bilan boshqa funktsional nutq turlaridan ajralib turishi bevosita rus tili ilmiy stilning funktsional tasiri natijasidir. Bu hozirgi o‘zbek adabiy tili ilmiy uslubining funktsional taraqqiyotidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Baskakov N.A., Sodiqov A.S., Abduazizov A.Umumiyl tilshunoslik. – T., 1979.
2. Begmatov E., Ne’matov H., Rasulov R. Leksik mikrosistema va uning tadqiq metodikasi // O‘zbek tili va adabiyoti. Jurnali, 1989, 6-son.
3. Ganiev F.A. O sinteticheskix i analiticheskix padejax // Voprosy tyurkologii. – Kazan, 1970.
4. Gulyamov A.G.Osoputstvuyushchih yavleniyax pri affiksatsii v uzbekском языке // Nauchnye trudy TashGU, выр 211. – T., 1963.
5. Gulyamov A.G. Problemy istoricheskogo slovoobrazovaniya uzbekskogo языка, ch.1. Affiksatsiya. Avtor1ef.dokt.diss. – T., 1955.
6. Rahmatullaev Sh. –dek formanti haqida. O‘TA, 1977.
7. O‘zbek tili grammatikasi, II tomlik, I tom, – T., 1975.
8. Qosimxo‘jaev O. So‘zning morfologik tarkibi. – T., 1963.
9. G‘ulomov A.G. va boshqalar. O‘zbek tili morfem lugati. – T., 1977.
10. G‘ulomov A.G. Morfologiya (kirish) O‘zbek tili grammatikasi II tomlik, I tom, – T., 1975.
11. G‘ulomov A.G. Sifat haqida mulohazalar (ikkinch maqola)ToshDU ilmiy asarlari “O‘zbek tilida so‘z yasalishi”, – T., 1979.
12. Hojiev A., Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tili va uni o‘rganishning aktual masalalari O‘TA, 1982.
13. Hojiev A. Darsliklar talab darajasida bo‘lsin, “ O‘qituvchilar gazetasi”, 1987, 18 mart.
14. Hojiev A. Lingivistik terminlar izohli lug‘ati. – T., 1985.